

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

Tarix fakulteti

“Umumiy tarix” kafedrası

Umarov Sardor Yakubovich

**Ikkinchi jahon urushidan so'ng Sovet – Amerika munosabatlari davriy
matbuot sahifalarida (Sho'rolar davri va Rossiya mualliflarining
materiallari asosida).**

**“5A220200-TARIX” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish
uchun**

“Ish ko'rildi va himoya qilishga
ruxsat berildi”

Kafedra mudiri: _____
Dos. Hoshimova M.M.

Ilmiy rahbar _____
Rahmatullayev M.R.
“ ” _____ 201__ y.

Taqrizchi: _____

“ ” _____ 201__ y.

MUNDARIJA

Kirish.....	3-9
1 BOB Sovet – Amerika munosabatlari sho’rolar davriy matbuoti sahifalarida.....	10-35
1.1. Qarama – qarshilikning boshlanishi, kuchayishi va apogeyn (1946 – 1962 y.y.) mualliflar nigohida.....	10-19
1.2. “Siyosiy iliqlik” davrining (60 – yillar oxiri – 70 – yillar) sabablari, mazmuni va mohiyati tadqiqotchilar izlanishlarida.....	20-27
1.3. Sovet – Amerika munosabatlaridagi “murakkab davr” (80 – 90 – yillar boshi) muammolari sho’rolar davriy matbuotida yoritilishi.....	28-35
2 BOB. Ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet – Amerika munosabatlari Rossiya mualliflari talqinida.....	36-55
2.1. Paradigmalarining o’zgarishi, yangicha fikrlash va qarashlar.....	36-39
2.2. Rossiya davriy matbuoti Yalta – Postdam tartiboti yillaridagi (1946 – 1985 y.y.) Sovet – Amerika munosabatlari to’g’risida.....	40-50
2.3. Yalta – Postdam tartibotining barbod bo’lishi davrida (1986 – 1991 y.y.) Sovet – Amerika munosabatlarining o’rganilish darajasi.....	51-55
Xulosa.....	56-58
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	59-61
Qisqartmalar ro’yxati.....	62
Ilovalar.....	63-67

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyingi 21 yillik davr mobaynida boshqa jabhalarda bo'lgani singari tarix sohasida ham misli ko'rilmagan o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekistonning tarixchi – olimlari jahonga yuz tutdi. Boy hamda qiziqarli o'tmishimiz jahon hamjamiyatini e'tiborini tortib keldi. Dunyo olimlari dunyo mamlakatlari tarixini va diplomatik aloqalarini o'rganish ishtiyoqidalar. Shu nuqtayi nazardan ham mamlakatimizda dunyo mamlakatlarining tarixi va ularni boshqa davlatlar bilan olib borgan diplomatik va o'zaro munosabatlarini o'rganishga qiziqish keyingi paytlarda kuchayib bormoqda. Bu yo'lda o'zbek tarixchi - olimlari dunyoning eng ilg'or tarix maktablari mutaxassislari bilan ilmiy hamkorliklarni yo'lga qo'ymoqda. Hozirda bizning oldimizda ham dunyo mamlakatlarini tarixini mukammal o'rganish vazifasi dolzarb bo'lib turibdi. Negaki biz jahonning integrallashuviga moslashib borishimiz uchun ularning tarixini va dunyoning bu buyuk davlatlarining o'zaro olib borgan munosabatlarini o'rganmog'imiz davr talabiga aylanib ulgurdi.

Shu boisdan ham bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida mamlakatlar tarixidagi o'zaro diplomatik munosabatlari o'rgatilib kelinmoqda. Bu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda biz ham Sovet – Amerika munosabatlarini davriy matbuot materiallarida – asosan ilmiy jurnallarda qay tariqa yoritilib berilganligi masalasini o'rganishga qaror qildik. Chunki, har qanday jamiyatdagi va davlatdagi haqqoniy vaziyat birinchi navbatda davriy matbuot materiallarida haqqoniy tarzda ochib berilishi barchamizga ma'lum. Shuningdek, ushbu tarzda – ya'ni davriy matbuot asosida tarixni o'rganish bugungi kunda dunyo tarixi ilmida keng tarqalib borayotgan metodlardan biri bo'lib, bu metod asnosida tarix yaratilmoqda. Biz ham ushbu yuqoridagilarni hisobga olib ushbu mavzuni va ushbu metodologik tadqiq etish usulini tanladik. Zotan bu o'zbek tarixshunosligida hali yosh bo'lgan yo'nalish sanaladi.

Hozirda ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet – Amerika munosabatlari davri bo'yicha Sho'rolar va Rossiya olimlari tomonidan olib borgan ilmiy tadqiqotlarini umumlashtirgan holda yagona tadqiqot obektiga aylantirish, jadal ilmiy izlanishlarga yakun yasash dolzarb vazifalardan biridir.

Muammoning o'rganilish darajasi. O'zbekistonda Sovet – Amerika munosabatlarini davriy matbuot materiallari asosida o'rganish hali u darajada rivoj topmagan soha bo'lib, uni o'rganish ishlari keyingi yillarda boshlab yuborilgan bo'lib, bu sohadagi ishlar endi nihoyasiga yetish arafasida. Hozirda ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet – Amerika munosabatlari muammolari bo'yicha Rossiya va dunyoning turli nashrlarida talaygina ilmiy maqolalar chop etilgan. Biroq, ulardan hanuzgacha talaba va magistrantlar malakaviy ishlar yaratishda foydalanmagan va umumlashtirgan holda bir tizimga solgan emas. Ushbu malakaviy bitiruv ish bu borada amalga oshirilayotgan ilk qadamlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning davriy chegarasi: malakaviy bitiruv ishi o'z davriy chegarasiga Ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet – Amerika munosabatlarini qamrab oladi (1946 – 1991 yy.).

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Malakaviy bitiruv ishi SamDU tarix fakulteti umumiy tarix kafedrasining malakaviy bitiruv ishlari rejasi asosida bajarilgan. Hamda kafedraning bosh mavzusi hisoblangan “Yevropa davlatlari tarixining Rossiya tarixshunosligida o'rganilishi” bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Tadqiqotning maqsadi: Ikkinchi jahon urushidan so'ng sovet – amerika munosabatlari davriy matbuot sahifalarida (Sho'rolar davri va Rossiya mualliflarining materiallari asosida) yoritilishini o'rganish va muammolarni tahlil etish, ularning tarixni o'rganishdagi ahamiyatini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

- ikkinchi jahon urushidan so'ng sovet – amerika munosabatlarini davriy matbuot sahifalarida (Sho'rolar davri va Rossiya mualliflarining materiallari asosida) ochib beruvchi ilmiy tadqiqotlarini ma'lum bir tizimga solish va umumlashtirish;

- ikkinchi jahon urushidan so'ng sovet – amerika munosabatlarini o'rganishdagi muammolarga Sho'rolar davri va Rossiya mutaxassislarining qarashlarini tahlil qilib, ulardan ayrimlarining yechimini topish;

-ikkinchi jahon urushidan so'ng sovet – amerika munosabatlari davriy matbuot sahifalarida (Sho'rolar davri va Rossiya mualliflarining materiallari asosida) ilmiy tadqiqotlarining natijalarini ilmiy muomalaga kiritish;

- ikkinchi jahon urushidan so'ng sovet – amerika munosabatlari davriy matbuot sahifalarida (Sho'rolar davri va Rossiya mualliflarining materiallari asosida) yoritilishini o'rganish va buni jahon tarixida tutgan o'rnini aniqlash;

- ikkinchi jahon urushidan so'ng sovet – amerika munosabatlari davriy matbuot sahifalarida (Sho'rolar davri va Rossiya mualliflarining materiallari asosida) tadqiqotning ilmiy ahamiyatini belgilash;

Tadqiqot predmeti va obektlari. Sovet davlati va Rossiya miqyosida ikkinchi jahon urushidan keyingi yillar mobaynida tadqiq qilingan ikkinchi jahon urushidan keyingi sovet-amerika munosabatlari davriga oid ilmiy maqolalar va ularni o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan tarixiy faktlar.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslari. Malakaviy bitiruv ishida tadqiq etilayotgan masalalarga tarixiy haqiqat va xolislik nuqtai-nazaridan yondashilgan. Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida tarixiy tadqiqotlar oldiga qo'ygan vazifalardan kelib chiqib, mavzuni yoritish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish ko'zda tutilgan. Ilmiy muammoni o'rganish va tahlil qilishda tarixiy – falsafiy uslublardan, ya'ni analiz va sintez, sistemalashtirish, mavhumlikdan murakkablikka intilish, qiyosiy solishtirma, obektiv holatni tahlil

qilish kabi metodlardan foydalanilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqotda yangi va zamonaviy progressiv ketma-ketlik nazariyasi asos qilib olindi.

Tadqiqotning manbalari: Sho'rolar davrida va Rossiya federasiyasida rus mualliflari tomonidan nashr etilgan, Sovet-Amerika munosabatlariga bag'ishlangan ilmiy jurnallar materiallari, ilmiy tahlili natijalari.

Tadqiqotning tarixshunosligi: G.I.Svyatovning “О политике США в области строительства вооруженных сил и ограничения вооружений”¹, L.N.Ignatyevning “Ядерное оружие и Американская внешняя политика”², G.A.Voronsovning “Эволюция внешней политики США в условиях разрядки”³, R.G.Tumkovskiyning “Советско-Американские переговоры об ограничении стратегических вооружений”⁴, V.F.Petrovskiyning “Борьба СССР за разрядку в 70-годы”⁵, N.N. Bonsevichning “Американские СМИ о Советской России в 1947 году”⁶, V.S.Xristoforovning “Н.С.Хрущёв и Дж. Кеннеди: Подготовка и проведение встречи в Вене в 1961 году. По документам Российских Архивов”⁷, N.P.Kalmikovning “Россия и США в XX веке”⁸, S.V. Хомутинкинning “Генри Киссинджер и Советско-Американские отношения в 1970-е гг.”⁹, A.G. Dulyanning “Советско-

¹ Г.И. Святлов. О политике США в области строительства вооруженных сил и ограничения вооружений // Вопросы истории .1978.№ 2. ст. 66-92.

² Л.Н. Игнатьев. Ядерное оружие и Американская внешняя политика //Вопросы истории .1971,№ 6, ст.80-90.

³ Г.А.Воронцов. Эволюция внешней политики США в условиях разрядки // Вопросы истории.1976.№ 9 ст.45-63

⁴ Р.Г.Тумковский. Советско-Американские переговоры об ограничении стратегических вооружений // Вопросы истории.1979. № 3. ст.70-86.

⁵ В.Ф.Петровский. Борьба СССР за разрядку в 70-годы // Новая и новейшая история.1981. № 1 ст.3-20.

⁶ Н.Н.Бонцевич. Американские СМИ о Советской России в 1947 году. // Известия Саратовского университета 2011., том 11., Серия История. Международные отношения., выпуск 2, часть 2., с.88-96.

⁷ В.С. Христофоров. Н.С.Хрущёв и Дж. Кеннеди: Подготовка и проведение встречи в Вене в 1961 году. По документам Российских Архивов. // Новая и новейшая история. 2011, № 3 с.15-34.

⁸ Н.П.Калмыков. Россия и США в XX веке. // Новая и новейшая история. 2011, № 3 с.122-130.

⁹ Хомутинкин. С.В. Генри Киссинджер и Советско-Американские отношения в 1970-е гг. // Россия и Америка в XXI веке.// Электронные научные журнал. 2007, № 1,

Американские отношения. Годы разрядки, 1969-1972”¹⁰, V.V. Sokolovning “Американский миллионер А.Хаммер сторонник разрядки и мира между СССР и США. По материалам Архива Президента РФ”¹¹, A.G. Arbatovning “Роль Пентагона в формировании внешней политики США послевоенного двадцатилетия”¹², N.V.Kochkinning “СССР, Англия. США и “турецкий кризис” 1945 – 1947 гг”¹³ kabi maqolalarini kiritish mumkin.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

-Malakaviy ishda Sho’rolar davri va Rossiya mualliflari tomonidan 1946-2013 yillarda amalga oshirilgan ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet-Amerika munosabatlariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlari umumlashtirilib, yakun yasaldi;

- Rossiya mualliflari tomonidan ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet-Amerika munosabatlari davrini o’rganish bo’yicha faoliyatining ilmiy va amaliy ahamiyatlari belgilab berildi;

- ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet-Amerika munosabatlari Sho’ro va Rossiya mualliflari tomonidan o’rganilishi masalalariga ilmiy manbalar asosida oydinlik kiritildi;

- ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet-Amerika munosabatlari Rossiya mualliflarining turli xil ilmiy qarashlari tahlil qilindi va ulardan ayrimlarining yechimi ko’rsatib berildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

¹⁰ А.Г.Дульян. Советско-Американские отношения. Годы разрядки, 1969-1972. // Новая и новейшая история. 2008, №2 с.82-89.

¹¹ В.В.Соколов. Американский миллионер А.Хаммер сторонник разрядки и мира между СССР и США. По материалам Архива Президента РФ”// Новая и новейшая история. 2009, №1 с.160-182.

¹² А.Г.Арбатов. Роль Пентагона в формировании внешней политики США послевоенного двадцатилетия // Вопросы истории .1974.№2. ст. 97-111.

¹³ Н.В.Кочкин СССР, Англия. США и “турецкий кризис” 1945 – 1947 гг // Новая и новейшая история. 2002, №3 с.58 - 77.

-Ilmiy ishda birinchi marta Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyingi ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet-Amerika munosabatlari davrini o'rganishdagi Sovet va Rossiya mualliflarining tadqiqotlari natijalari umumlashtirildi va ma'lum bir tizimga solindi.

- Sovet va Rossiya mualliflarining tadqiqotlari natijalari amalga oshirilgan tadqiqotlar bilan o'zaro taqqoslandi.

- ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet-Amerika munosabatlarining Sovet va Rossiya mualliflarining ilmiy tadqiqotlari natijalari umumiyashtirilib, bir tizimga solinib ilmiy muomalaga kiritildi.

- ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet-Amerika munosabatlarining Sho'rolar davri va Rossiya mualliflari tomonidan berilgan davriy talqini ishlab chiqilib, uning ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet-Amerika munosabatlarini tarixini o'rganishda tutgan o'rni belgilab berildi.

- ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet-Amerika munosabatlarining o'rganilishidagi muammolarga Sho'rolar davri va Rossiya mutaxassislarining munosabatlari tahlil qilinib, ularni hal qilishning ayrim yo'llari belgilab berildi.

-O'zbekistonda ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet-Amerika munosabatlarini o'rganishda hamda kadrlar tayyorlashda Sho'rolar davri va Rossiya mualliflari tomonidan berilgan davriy talqinining ahamiyati aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Sho'rolar davri va Rossiya mualliflari tomonidan ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet-Amerika munosabatlarini tarixini o'rganish borasida amalga oshirilgan natijalarni umumlashgan holda tadqiq qilish, ularning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilash ilk marotaba amalga oshirildi. Ushbu ilmiy ish ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet-Amerika munosabatlarini tarixini o'rganish bo'yicha to'planayotgan manbashunoslik bazasini yanada kengaytiradi. Ilmiy ishning natijalaridan Sho'rolar davri va Rossiya mualliflari tomonidan ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet-Amerika munosabatlariga berilgan davriy bahoni

aniqlashda hamda davriy talqinlariga aniqliklar kiritishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Malakaviy bitiruv ishi kirish, 2 ta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, qisqartmalardan iborat. Ilmiy ishning hajmi 62 bet, unga 6 ta materiallar ilova qilingan.

1.BOB Sovet – Amerika munosabatlari sho'rolar davriy matbuoti sahifalarida.

1.1. Qarama – qarshilikning boshlanishi, kuchayishi va apogeyn (1946 – 1962 y.y.) mualliflar nigohida.

XX asrning ikkinchi yarmida Sovet – Amerika munosabatlari butun xalqaro munosabatlarning tarkibiy qismi, qolaversa uning mazmunini tashkil etardi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Sovet-Amerika munosabatlari xalqaro munosabatlarda muhim rol o'ynagan. Aynan o'sha davrda dunyo miqyosida bo'lgan barcha siyosiy voqealar, u fojiali damlar yoki “detant” bosqichi bo'larmidi, ular albatta Sovet – Amerika munosabatlari bilan bog'langan edi. Shu boisdan ham Sovet-Amerika munosabatlari tarixchilar diqqat markazida bo'lib kelgan.

Har ikki davlat o'rtasidagi XX asrning ikkinchi yarmidagi munosabatlar har doim davriy matbuot sahifalarida yoritilib kelingan. Sho'rolar davri mualliflari ham, Rossiya federatsiyasi mualliflari ham ushbu dolzarb muammoni har doim o'rganib kelganlar. Sovet – Amerika munosabatlari Sho'rolar davri matbuotida asosan o'sha davr sotsializm g'oyalari asosida o'rganilgan va bunda asosan o'sha davrda ochiq bayon etilgan ma'lumotlardan foydalangan holda munosabatlarni o'rganishgan. Bu davrda chop etilgan maqolalarning ko'pchiligida asosan munosabatlarning yomonlashuviga sababchi sifatida AQSh davlatini e'tirof etganlar. Sovet davlatini esa asosan tinchlik istovchi va munosabatlarni yaxshi davom ettirishni hohlovchi davlat sifatida talqin etgan. Ammo Sovet davlati parchalanib ketgandan keyin mualliflarning qarashlarida ham o'zgarish sodir bo'ldi. Endilikda ular haqqoniy munosabatlar tarixini ochib berishga harakat qildilar. Mualliflar munosabatlarga oid bir necha o'nlab maqolalarni chop etishgan. Bu kabi Sovet – Amerika munosabatlarini davriy matbuotda o'rganilishini XXI asr rus davriy matbuot materiallarida ham kuzatish mumkin. Bu mavzu yuzasidan o'sha davrda chop etilgan maqolalar singari hozirgi kunda ham davriy matbuotda turli maqolalar chop etib

kelinmoqda. Agar o'sha davrda matbuotda chop etilgan maqolalarda aynan o'sha davrda ochiq bayon etilgan materiallardan foydalangan bo'lsalar, Sovet ittifoqi tarqab ketgandan so'ng esa tarixchi olimlar o'z maqolalarida arxiv hamda Amerikada chop etilgan o'sha davr davriy matbuoti materiallaridan foydalanib, munosabatlar tarixiga oid bo'lgan holatlarni yoritib berishga harakat qilganlar. Shuningdek, munosabatlarga oid mulohaza va fikrlarini kommunistik qarashlar bilan emas, balki, xaqqoniy va obektiv berganlar.

Munasabatlarning yoritilish darajasini biz ikki davrga ya'ni Sho'rolar davri va Rossiya federatsiyasida chop etilgan maqolalar asnosida bo'lib o'rganishni ma'qul topdik. Munosabatlarning davriy matbuotda yoritilishini bu kabi ikki guruhga bo'lganligimizning boisi, har ikki davrda yaratilgan maqolalarda bir – biridan farq qiluvchi qarashlarni ko'rish mumkin. Shu boisdan ham mualliflarning qarashlaridan kelib chiqib, uni ikki davrga – Sho'rolar davri va Rossiya federatsiyasi davri davriy matbuotlariga bo'ldik. Buni ishni yoritish davrida qo'lladik. Yuqorida aytganimizdik, Sho'rolar davri davriy matbuot materiallarida biz asosan kommunistik ruhni, antiamerika qarashlarini, sovuq urushning kelib chiqishida G'arb davlatlarining aybdorligini, Amerikaning dunyoda olib borayotgan agressiv siyosatini qoralab yozganlar. Sovet davlatini esa hech bir kamchilikdan holi sifatida ochib bergan. Umuman bu davr davriy matbuot materiallarida kommunizm ruhiyatining kuchli ekanligi sezilib turadi. Ammo shunday bo'lsada bu davrda yaratilgan asarlarning ba'zi birlarida ma'lum ma'noda bu qarashlardan chekingan holda munosabatlarni haqqoniy yoritib berishga bo'lgan urinishni ham ko'rish mumkin.

Sovet – Amerika munosabatlari har doim: Sho'rolar davrida ham, Rossiya davlatida ham o'rganilib, davriy matbuotda turli maqolalar chop etilgan va bu hozirda ham davom etmoqda. Biz ushbu ishda Sovet – Amerika munosabatlarini davriy matbuotdagi ifodasini turli bosqichlarga bo'lib ko'rib chiqamiz.

Biz Sovet – Amerika munosabatlarini rus tarixchilarining davriy matbuotda chop etgan materiallariga asoslanib quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganishni lozim topdik.

Birinchi davr – 40 – yillar oxiri – 60 – yillar boshi – o'zaro munosabatlarning keskinlashuvi va qarama – qarshiliklar;

Ikkinchi davr - 60 – yillar oxiri - 70 – yillar – munosabatlarning iliqlashuvi va “detant” davri;

Uchinchi davr – 80 – 90 – yillar boshi– munosabatlarning navbatdagi keskinlashuvi va muzokaralar davri.

Dunyoning ikkita eng yetakchi davlatlari hisoblangan Sovet ittifoqi va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar o'tgan asrning turli davrlarida turlicha kechgan. Agar ular A. Getlarning va fashizmning havfi ostida ikkinchi jahon urushida ittifoqchilik rishtalarini bog'lagan bo'lsalar, urush tugashi bilan ikki buyuk davlatlar orasidan adovat chizig'i o'ta boshladi. Bu esa 50 yilga yaqin davom yetgan “Sovuq urush”ni ketirib chiqardi. Xo'sh nega?. Nima uchun o'zaro ittifoqda bo'lgan davlatlar urush tugashi bilan bir biriga qarshi tomonlarga aylanib qoldi?. Buning bir qancha obektiv va subektiv sabablari mavjud edi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Sovet –Amerika munosabatlarida o'zaro qarama-qarshiliklar yuzaga keldi. Bunga birinchi navbatda Sovuq urushning boshlanganligi sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan esa Amerika hukumati tepasiga kelgan yangi rahbarlar tomonidan olib borilgan targ'ibotlar ham sabab bo'lgan.

Shuningdek, quyidagi sabablar ham munosabatlarni keskinlashtirib yubordi.

Birinchidan: Bu ikki davlat urush arafasi va urush davomida yagona dushmanga qarshi g'olib kelish uchun kuchlarni birlashtirishga kirishgan bo'lib, g'alaba natijasida har biri dunyoda gegemonlikka intilar edi;

Ikkinchidan: Har ikki davlat bir – birini kuchayib ketishidan havf sirardi. Bu kuchayib borish oqibatida birini ikkinchisiga qaram bo'lib qolishidan cho'chirdi;

Uchinchidan: AQSh urush tugashi bilan o'z atom bombasini ishga solib, Sovet ittifoqini jilovlab qo'ymoqchi bo'ldi. Bu esa aks ta'sir berib Sovet ittifoqida atom bombasidan kuchliroq Vodorod bombasining yaratilishiga olib keldi;

To'rtinchidan: Mamlakatlar iqtisodiyotining turli yo'llar bilan tartibga solinganligi, demokratik jamiyat va sotsializm bir biriga zid bo'lib qolganligi;

Beshinchidan: Mamlakatlar tepasida turgan davlat rahbarlarining qarashlaridagi o'zaro ziddiyatlarning mavjudligi edi.

Sovet – Amerika munosabatlarida shu tariqa o'zaro qarama qarshilik kayfiyati yuzaga kelgan bo'lib, bu jarayon XX asrning 40 – yillari oxirlaridan 60 – yillargacha davom yetdi.

Sovet – Amerika munosabatlarida ikkinchi jahon urushidan so'ng qarama – qarshilikning yuzaga keldi va “Sovuq urush” kelib chiqdi. Munosabatlarning ushbu sovuqlashgan davri ham sho'rolar davri mualliflarining asarlarida ochib berilgan. Sovet davlati muallifi sanalgan V.M.Xaysman o'zining “Крах атомной монополии США”¹⁴ nomli maqolasida AQShning atom bombasini yaratishi, bu orqali o'zining “atom diplomatiyasi”ni amalga oshirganligi, keyinchalik esa Sovet davlatida ham atom bombasining yaratilishi asnosida AQShning atom bombasi ustidan monopoliyasini yo'qqa chiqqanligini ochib bergan. Shuningdek bu sovuq urush holatining kelib chiqishiga sabab bo'lganligini ham ta'kidlab o'tgan.

Xaysmanning yozishicha sovuq urushga va Sovet – Amerika munosabatlarining urushdan keyingi keskinlashuviga olib kelgan atom

¹⁴ В.М. Хайцман. Крах атомной монополии США // Новая и новейшая история. 1981. № 1.ст.18 - 35.

bombasini bir necha kunlik omadli tajribalardan keyin Almagardo (Nyu Meksika shtatida) da Yaponiyaga tashlash uchun tayyorgarlik boshlanganligini hamda AQSh hukmron doiralarida Yaponiyaga qarshi atomni qo'llash boshlanganligini, bu jarayonda Yaponiyaning Kakura, Xirosima, Niigata va Kioto shaharlariga tashlash ko'zlanganligini ta'kidlagan¹⁵.

Muallif shuningdek, AQSh tomonidan qo'llanilgan "atom diplomatiyasi"ga ham to'xtalib o'tgan. "AQSh hukumati atom monopoliyasini urushdan keyingi dunyoni qurish bo'yicha kelishuvlarda muhim vosita hisobladi. AQSh butun dunyodagi muammolarni atom vositasida hal qilishga o'rindi"¹⁶. Muallif o'z fikrlarini davom ettirib yozadi: "AQSh atom bombasini ishlab chiqarish uchun o'zining atom zaxiralarini bunyod etgan. Amerika diplomatiyasida atom bilan tahdid qilish bosh usullardan biriga aylandi"¹⁷.

Xaysman o'zining ushbu maqolasida Sovet – Amerika munosabatlarining urushdan keyingi keskinlashuvining va dunyo qurollanish poygasini avj olib ketishining asosiy sababi bo'lgan Sovet davlatining o'z atom bombasiga ega bo'lishi haqida to'xtalgan. Muallif shunday yozadi: "Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng, atom tahdidi siyosati vaziyatida, Sovet hukumati olim va injenerlarga qisqa vaqt ichida o'z atom bombasini yaratishni buyurdi"¹⁸.

Oxir oqibatda Sovet davlati 1949 – yilda o'zining atom bombasini yaratdi. AQShning atom bombasi ustidan monopoliyasi va atom bombasi bilan tahdid qilish diplomatiyasi o'z nihoyasiga yetdi.

Sho'ro tarixchilaridan A.G.Arbatov o'zining "Роль пентагона в формировании внешней политики США послевоенного двадцатилетия" deb nomlangan maqolasida AQShning ikkinchi jahon urushidan keyingi 20 – yillik tashqi siyosatini va bu siyosatda Sovet ittifoqiga nisbatan qanday kayfiyat bo'lganligini va tashqi siyosatning qaror topishida Pentagonning ham roli yuqori

¹⁵ В.М. Хайцман. Крах атомной монополии США // Новая и новейшая история. 1981. № 1.ст. 23.

¹⁶ В.М. Хайцман. О'sha joyda. ст. 28.

¹⁷ В.М. Хайцман. О'sha joyda. ст. 29.

¹⁸ В.М. Хайцман. О'sha joyda. ст. 32.

ekanligini ochib bergan. A.G.Arbatov maqolasida AQShning ikkinchi jahon urushidan keyingi tashqi siyosatiga quyidagicha ta'rif beradi: "AQShning tashqi siyosatining klassik asoslari ikkinchi jahon urushidan so'ng o'zgarmadi: faqat dunyodagi kuchlar o'rtasidagi munosabati keskin o'zgardi... AQSh hukmron doiralari dunyoda hukmronlik o'rnatishga katta e'tibor berdilar. Vashington g'arb uchun havfli bo'lgan kommunizmni yo'q qilish uchun "kommunizmni uloqtirish" ishlarini boshlab yubordi. Militarizm Vashington siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi"¹⁹.

Muallif ta'kidlashicha 50 – 60 – yillarning birinchi qismida AQSh Yevropa bilan birga "dunyo ishini" boshlagan bo'lib, u butun dunyoni muhim ishiga aylangan edi²⁰.

Muallif keltirishicha Amerika klassik militarizmning asosida SSSRga qarshi harakatlar turgan. Uning yetakchilari Sovet ittifoqini "agressiv" deb baholab, Sovet ittifoqining siyosatini esa "Sovet ittifoqining harbiy bosqini" deb nomlagan²¹.

Mualif fikrlarini davom ettirib yana quyidagicha bayon etadi: "50 – 60 – yillarda Amerika hukmron doiralari orasida urushga tayyorgarlik ko'rish bosh vazifalardan biriga aylangan"²². Amerika tashqi siyosatidagi asosiysi qurol kuchi emas, balki yana muhim sanalgan harbiy va strategik o'rin muhim bo'lib bordi²³.

Militarizmning asosiy g'oyalaridan biri harbiy qurollanish bo'lib bordi. Buni hatto siyosatning bosh markaziga olib chiqdilar. Agar 50 – yillarning birinchi yarmida Sovet davlati, G'arbiy Yevropadagi antikommunizm g'oyasi tarafdorlari, o'zining agressiyasi bilan Sharqiy Yevropa davlatlarining ijtimoiy tizimini jiddiy buzib, Sovet davlatining kuchi va avtoretitini oshirmoqda degan

¹⁹ А.Г. Арбатов. Роль Пентагона в формировании внешней политики США послевоенного двадцатилетия // Вопросы истории .1974.№2. ст. 98.

²⁰ А.Г. Арбатов. О'sha joyda. ст. 98.

²¹ А.Г. Арбатов. О'sha joyda. ст. 98.

²² А.Г. Арбатов. О'sha joyda. ст. 99.

²³ А.Г. Арбатов. О'sha joyda. ст. 99.

tushuncha mavjud bo'lgan²⁴ bo'lsa, 60 – yillarga kelib esa vaziyat o'zgardi: Amerika hukumati va G'arbiy Yevropa davlatlari rahbarlari tushundiki, Sovet dalati hujumga tayyorlanmoqda²⁵. Muallif Sovet – Amerika munosabatlarining uzilishini quyidagicha yozadi: “1950 – 1953 – yillarda Trumen boshqaruvi davrida Germaniya muammosi sababli Sovet davlati bilan barcha aloqalarni uzdi”²⁶. “1957 – 1958 – yillarda Eyzenxaur boshqaruvi esa sosialistik davlatlarning Markaziy Yevopani yadrodan holi hududga aylantirish to'g'risidagi taklifini rad etdi”²⁷.

Shuningdek muallif AQSh burjuaziyasining siyosatini o'zgartirib yuborgan omilni ham aytgan. “Sovuq urush” burjuaziyaning siyosatini o'zgartirib yubordi: harbiy bloklar va qurollanish poygasi va harbiy hokimiyatni rolini oshirdi”²⁸.

Muallif keltirishicha 1962 – yilgi Karib inqirozi, Vetnamdagi mag'lubiyat va boshqa muvaffaqiyatsizliklar Pentagonni siyosatini o'zgartirib, endilikda Sovet ittifoqi va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida qurollanish poygasini cheklash to'g'risida shartnoma tuzishga undadi²⁹.

Karib inqirozi va uning kelib chiqish sabablarini Sovet davlati muallifi G.M.Korniyeenko o'zining “Новое о Карибском кризисе”³⁰ nomli maqolasida ochib bergan. Muallif o'z maqolasini Karib inqiroziga o'ttiz yil to'lgani munosabati bilan, Sovet davlati o'zining so'nggi yilini yashayotgan davrda yozgan bu jarayonda muallif solishtirish maqsadida AQSh mualliflarining materiallaridan ham unumli foydalangan. Muallif maqolasining inqirozning kelib chiqish sabablari qismida Karib inqirozini keltirib chiqargan omillarni AQSh va Sovet mualliflarining asar va materiallarini qiyosiy o'rganib bayon

²⁴ А.Г. Арбатов. Роль Пентагона в формировании внешней политики США послевоенного двадцатилетия // Вопросы истории .1974.№2. ст. 99.

²⁵ А.Г. Арбатов. О'sha joyda. ст. 99.

²⁶ А.Г. Арбатов. О'sha joyda. ст. 100.

²⁷ А.Г. Арбатов. О'sha joyda. ст. 100.

²⁸ А.Г. Арбатов. О'sha joyda. ст. 101.

²⁹ А.Г. Арбатов. О'sha joyda. ст. 110.

³⁰ Г.М. Корниенко. Новое о Карибском кризисе.// Новая и новейшая история. 1991. № 1.ст.77 - 92.

etgan. Muallif keltirishicha Amerikalik mualliflarning fikricha Karib inqiroziga Kuba hududiga Sovet davlati raketalarining joylashtirilganligi sabab bo'lgan³¹.

Muallifning fikricha AQSh prezidenti J.Kennidining va uning qo'l ostidagilarning Sovet davlati raketalarini Kuba hududida joylashtirishini qabul qila olmagan uchun kelib chiqqan. Agar Amerika buni qabul qilganda hech qanaqa inqiroz bo'lmas edi³². Muallif ushbu o'rinda ham barcha sovet mualliflari kabi asosiy aybdor sifatida Amerika Qo'shma Shtatlarini ko'rsatadi. Aslida esa raketa joylashtirgan davlatning o'zi asosiy aybdor va dunyo tinchligi uchun havfli ekanligini kecha va bugun ko'rsatib turibdi.

Muallif AQShning Sovet ittifoqining yadro siyosatiga har doim aralashib kelganligini, ammo Moskva qisqa vaqt AQSh bilan yadro quroli ustidan nazorat bo'yicha kelishuv bo'lganligi uchun hech bir qarshi ishni amalga oshirgan emas³³. Bizga ma'lumki 1961 – yilda Sovet – Amerika munosabatlarida iliqlik davri ro'y bergan bo'lib, AQSh davlat rahbari bilan Sovet ittifoqi rahbari uchrashgan edi. Muallif bu o'rinda ushbu uchrashuvda tuzilgan kelishuvlarni nazarda tutgan.

Muallif inqirozni boshlanishini ham ta'kidlagan. Inqiroz Sovet rahbariyati tomonidan boshlab berildi. U har kuni o'sib bordi. Inqirozning kulminatsiyasi muallifning fikricha 25 oktabrdan o'tar kechasi bo'lgan. Shu kunning ertasida, kunning birinchi yarmi Xrushyov tomonidan Kennidiga maktub yo'llangan. Unda agar AQSh tomoni Kubani bosib olmaslikka va'da bersa Sovet davlati o'z yadro qurollarini olib chiqishini aytgan³⁴. Bu Moskva tomonidan inqirozni rivojlantirish uchun qilingan ish edi³⁵. Ushbu o'rinda muallif holatni haqqoniy ochib berishga harakat qilgan. Shu bilan birga Vashington ham Sovet davlatining yuqoridagi talabini rad etgan. 27 oktabrda Xrushyovning yangi

³¹ Г.М. Корниенко. Новое о Карибском кризисе.// Новая и новейшая история. 1991. № 1.ст.78.

³² Г.М. Корниенко. О'sha joyda.ст.78.

³³ Г.М. Корниенко. О'sha joyda. ст.79.

³⁴ Г.М. Корниенко. О'sha joyda. ст.85.

³⁵ Г.М. Корниенко. О'sha joyda. ст.86.

maktubi yuborildi. Unda Kubadan o'z raketalarini olib ketish evaziga Amerika Qo'shma Shtatlaridan Turkiya hududidagi raketalarini olib chiqib ketish talab etilgan³⁶. Sovet davlati rahbari Xrushyovning ushbu ikki maktubiga javoban AQSh hukumati 28 oktabrda javob maktubini yo'lladi. Ushbu maktub mazmuniga ko'ra Kubadan sovet raketalarining chiqib ketishi evaziga AQSh tomoni Kubani boshqarishni tugatishini ma'lum qilgan³⁷.

Shunday qilib 1962 – yil 28 – oktabrda inqiroz o'zining eng havfli nuqtasida yakun topdi. Mualliif o'zining fikrlarini ushbu so'zlar bilan yakunlagan.

Sovet – Amerika munosabatlari bu davrda o'ziga hos kechdi. Dunyoning ikki buyuk davlati o'rtasida qarama – qarshilik, ikkita palegon yuzaga keldi. Bir so'z bilan aytganda dunyoda oq va qoraga bo'linib ketgan davlatlar shakllandi. Bular tepasida albatta esa yo Sovet ittifoqi, yoki Amerika Qo'shma Shtatlari turar edi. Dunyoning bu ikki davlatining manfatlari esa har doim bu zaminning turli burchaklarida bir – biri bilan to'qnash keldi. Buni urushdan keyingi dastlabki yillarda, shuningdek, Koreya masalasida, Vetnam masalasida va nihoyat Kuba masalasidagi qarashlarini hamda ularning bir – biri bilan manfaatlari to'qnash kelganligini e'tirof etish lozim.

Ammo shunday bo'lsada Karib inqirozi bu davlatlar o'rtasidagi qarama qarshilik yaxshi oqibatlariga olib kelmasligini ko'rsatib berdi. Bu inqiroz haqiqiy sovuq urushning ahvolini ko'rsatib berdi. Bir harakat bilan bu zamin urush uchoqlarida qolishi hech kimga sir bo'lmay qoldi. Shunday taxlikali sharoitda har ikki davlatning rahbarlari dunyoning keyingi kelajagini ko'zda tutgan holda ushbu inqiroz holatidan chiqib ketish uchun bu ikki davlat o'zaro bir – biriga yon berib, bu vaziyatni yumshatdilar.

³⁶ Г.М. Корниенко. Новое о Карибском кризисе.// Новая и новейшая история. 1991. № 1. ст.86.

³⁷ Г.М. Корниенко. О'sha joyda. ст.91.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Sovet – Amerika munosabatlari batamoman ziddiyatlar ko'chasiga kirib qolgan edi. Shu boisdan ham ushbu davrni sho'rolar mualliflari o'z qarashlari bilan baholab bergan edi.

1.2. “Siyosiy iliqlik” davrining (60 – yillar oxiri – 70 – yillar) sabablari, mazmuni va mohiyati tadqiqotchilar izlanishlarida.

Sovet – Amerika munosabatlarining iliqlashuv davrining ilk qadamlari 60 – 70 –yillarda qo’yildi. Bu davr tarixiy adabiyotlarga “detant” (“iliqlik”) deb kirdi.

Sovet ittifoqi bilan Amerika o’rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishi va “detant” davrining boshlanishi 60-yillarning oxiri 70-yillarning boshiga to’g’ri keladi. “Detant” davri kirib kelishi albatta o’sha davrdagi bir qancha tarixiy sharoitlar bilan bog’liq holda yuzaga kelgan. Amerika hukumati tepasiga Reygan kelgan bo’lsa, Sovet ittifoqi ham muntazam qurollanishdan katta zarar ko’rmoqda edi. Shu boisdan ham munosabatlarning yaxshilanishi va yo’lga qo’yilishidan har ikki taraf manfaatdor edi.

70-yillar birinchi yarmida Sovet-Amerika munosabatlari yaxshilanib, ikki taraf o’rtasida strategik qurollarni qisqartirish to’g’risida shartnoma imzolandi. Sovet davlati mualliflari Sovet-Amerika munosabatlarining iliqlashib yo’lga qo’yilishiga doir bo’lgan turli maqolalarini matbuotda chop etgan.

60 – yillar oxiri - 70 – yillarda munosabatlarda o’zaro yaqinlashuv jarayoni ro’y berishiga bir necha sabablar bor edi.

Birinchidan:AQShda ham Sovet ittifoqida ham davlat rahbarlari o’zgargan edi;

Ikkinchidan: Har ikkala davlat ham o’zaro yaxshi munosabatlardan manfaatdor edi.Zero ikkala davlat poygasini boshlab yuborgan bo’lib, bu qurollanish har ikki mamlakatga katta miqdorda mablag’ sarflashga majburlagan edi;

Uchinchidan:AQShda 1960 – yil prezidentlik saylovlarida g’alaba qozongan Jon Kennidi Sovet ittifoqi bilan yaqinlashish tarafdori edi.

60- yillar o’rtalari - 70-yillar birinchi yarmida Sovet-Amerika munosabatlari yaxshilanib, ikki taraf o’rtasida strategik qurollarni qisqartirish

to'g'risida shartnoma imzolandi. Sho'rolar davri mualliflari Sovet-Amerika munosabatlarining iliqlashib yo'lga qo'yilishiga doir bo'lgan turli maqolalarini matbuotda chop etgan. Xususan, G.I.Svyatovning "О политике США в области строительства вооруженных сил и ограничения вооружений"³⁸, L.N.Ignatyevning "Ядерное оружие и Американская внешняя политика"³⁹, G.A.Voronsovning "Эволюция внешней политики США в условиях разрядки"⁴⁰, R.G.Tumkovskiyning "Советско-Американские переговоры об ограничении стратегических вооружений"⁴¹, V.F.Petrovskiyning "Борьба СССР за разрядку в 70-годы"⁴² kabi maqolalari shular jumlasiga kiradi.

Bu davr munosabatlar tarixida eng muhim davr hisoblanadi. Shu boisdan ham "detant" davri har doim Sho'ro tarixchilari diqqat e'tiborida bo'lib kelgan. 70-yillar birinchi yarmida Sovet-Amerika munosabatlari yaxshilanib, ikki taraf o'rtasida strategik qurollarni qisqartirish to'g'risida shartnoma imzolandi. Sho'ro mualliflari Sovet-Amerika munosabatlarining iliqlashib yo'lga qo'yilish davrini turli maqolalarida yoritib bergan.

Sovet-Amerika munosabatlarining XX asrning 70-yillarigacha bo'lgan tarixi, AQShning 2-jahon urushidan keyingi yadro quroli masalasidagi qarashlari va uning tashqi siyosatini L.N.Ignatyev "Ядерное оружие и Американская внешняя политика" nomli maqolasida ochib beradi. Muallif uni quyidagicha beradi: "AQSh yadro qurolidan "o'z raqiblariga psixologik tasir o'tkazish vositasi sifatida foydalandi"⁴³... Ammo ko'pchilik ilg'or fikrli Amerika

³⁸ Г.И. Святлов. О политике США в области строительства вооруженных сил и ограничения вооружений // Вопросы истории .1978.№ 2. ст. 66-92.

³⁹ Л.Н. Игнатьев. Ядерное оружие и Американская внешняя политика //Вопросы истории .1971,№ 6, ст.80-90.

⁴⁰ Г.А.Воронцов. Эволюция внешней политики США в условиях разрядки // Вопросы истории.1976.№ 9 ст.45-63

⁴¹ Р.Г.Тумковский. Советско-Американские переговоры об ограничении стратегических вооружений // Вопросы истории.1979. № 3. ст.70-86.

⁴² В.Ф.Петровский. Борьба СССР за разрядку в 70-годы // Новая и новейшая история.1981. № 1 ст.3-20..

⁴³ Л.Н. Игнатьев. Ядерное оружие и Американская внешняя политика //Вопросы истории .1971,№ 6, ст.80

sarmoyadorlari yadro qurolidan diplomatiyada siyosiy vosita sifatida foydalanishni xoxlamasdi⁴⁴. Shuningdek, yadro qurollarini rivojlantirish dasturini bir tomonlama va iloji bo'lsa Sovet ittifoqi bilan kelishib, ikki tomonlama qisqartirish masalasini 1969-yil kuzida Milliy xavfsizlik kengashi boshlig'i M.Bandi prezident Niksonga ma'lum qilgani ham keltirilgan. G.A.Voronsovning “Эволюция внешней политики США в условиях разрядки” maqolasida AQSh tashqi siyosatida Sovet-Amerika munosabatlari iliqlashuviga qiziqish o'sib borishi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, Sovet Ittifoqi o'tgan yillar davomida dunyoda tinchlikka intilgani ta'kidlangan. AQShda L.Jonson prezidentligi davrida sho'rolarga qarshi siyosat olib borilganligini, hukumat tepasiga kelgan J.Kennedi esa Sovet Ittifoqi bilan yaqinlashish tarafdori ekanligini ko'rsatadi. “Kennedi - deb yozadi muallif -1963-yil 10-iyunda Vashington universitetida qilgan chiqishida tashqi siyosatda xalqaro qarama qarshilikni hal etish va dunyo ahamiyatidagi muammoli masalalarni tinch yo'l bilan hal etish zarurligi yuzasidan nutq so'zlagandi. Buning natijasi o'laroq 1969-yil koinot, suv va atmosferada yadro qurolini qo'llamaslik yuzasidan imzolangan kelishuv ramziy ma'noda “ilk qadam” bo'lib, u sovuq urushni keyingi muammolar yuzaga kelgunicha to'xtatib turdi”⁴⁵. Shu bilan birga Vetnamdagi urush harakatlari AQSh tashqi siyosati inqirozini ko'rsatib berdi. “Vetnam masalasidan tegishli xulosa olgan Nikson 1969-yilda “Guam doktrinasi”ni ishlab chiqdi. Unda muhim masalalardan biri Sovet ittifoqi bilan munosabatalarni shakllantirish hisoblangan”⁴⁶. Bundan kelib chiqib Sovet-Amerika munosabatarini mo'tadillashtirishga dastlabki qadamalar amalga oshiriladi. 1969-yil AQSh Sovet ittifoqi bilan Yaqin Sharq masalasi, yadro qurollarini kamaytirish bo'yicha muzokaralar to'g'risida kelishuv imzolaydi. Voronsov AQShning 70-yillar birinchi besh yillik tashqi siyosatiga shunday

⁴⁴ Л.Н. Игнатьев. Ядерное оружие и Американская внешняя политика // Вопросы истории .1971, № 6, ст.88-89.

⁴⁵ Г.А.Воронцов. Эволюция внешней политики США в условиях разрядки // Вопросы истории.1976.№ 9., ст.48.

⁴⁶ Г.А.Воронцов. О'sha joyda., ст..50.

baho beradi: “tashqi siyosat prinsip va qarashlarini nazorat qilish, keng tinchlik siyosati olib borish davri bo’ldi”⁴⁷. Shuningdek muallif munosabatlar iliqlashuviga ta’sir etgan bir necha omillarni: Fransiyaning NATO tarkibidan chiqishi, GFR (Germaniya federativ respublikasi) bilan AQSh munosabatlarining buzilishini keltiradi⁴⁸. XX asrning 70-yillari birinchi yarmida bo’lib o’tgan uchrashuvlarga to’xtalib, shunday yozadi: “1972-1974-yillardagi 3 ta uchrashuvlar ichida Vladivostokdagi Brejnev va Ford o’rtasidagi uchrashuv nafaqat bu ikki davlatning, balki Varshava ittifoqi, NATO va butun dunyoning muvozanati va tinchligi uchun xizmat qildi”⁴⁹. G.I.Svyatov “О политике США в области строительства вооруженных сил и ограничения вооружений” maqolasida AQSh qurolli kuchlarini qurish siyosati va ularni cheklashga bo’lgan urinishlarga to’xtalib o’tadi. Muallif ta’kidlashicha “1974-yil noyabrda Vladivostokda strategik va qiruvchi qurollarni kelajakda qisqartirish masalasida Sovet ittifoqi va AQShning asosiy o’rni yuzasidan 1972-yilgi kelishuvlar yakuni bo’yicha qo’shimcha shartnoma imzolanib, unga ko’ra tomonlar 2400 dan ziyod yadro zaryadlari (МБР-межконтинентальные баллистические ракеты va uning ishlatish qurilmalari, БПЛ- баллистические ракеты на подводных лодках-ракетоносках va strategik portlatuvchilar) saqlamaslik majburiyatini oldi”⁵⁰. R.G.Tumkovskiy “Советско-Американские переговоры об ограничении стратегических вооружений” maqolasida Sovet-Amerika strategik qurollarini cheklash to’g’risidagi kelishuvlar 1969-yil 17-noyabrda Xelsinkida boshlanganini ta’kidlaydi. 1972-yil 26-may kuni Moskvada L.I.Brejnev va R.Nikson o’rtasida “strategik qurollarni cheklash to’g’risida” OSV 1 (Ограничение стратегически вооружений-1) kelishuv imzolagani, unda raketaga qarshi tizimni qisqartirish va vaqtincha bir qancha joylar va hududlarda strategik qurollarni tarqalishini oldini olish yuzasidan kelishuvlar

⁴⁷ Г.А.Воронцов. Эволюция внешней политики США в условиях разрядки // Вопросы истории.1976.№ 9.,ст.51

⁴⁸ Г.А.Воронцов. О’sha joyda., ст.53

⁴⁹ Г.А.Воронцов. О’sha joyda., ст.59.

⁵⁰ Г.И. Святков. О политике США в области строительства вооруженных сил и ограничения вооружений // Вопросы истории .1978.№ 2. ст. 84.

nazarda tutilgan⁵¹. OSV 1 shartnomasiga ko'ra har ikki taraf ikki hududini: har ikki davlat poytaxtini 150 km radiusda PRO (ПРО- противоракетная оборона -raketadan himoyalaniş) dan holi qilish, hech bir hududda MBR (МБР- межконтинентальные баллистические ракеты - qitalararo ballistik raketa) joylashtirishni taqiqladi⁵². R.G.Tumkovskiy Sovet-Amerika munosabatlarida katta ahamiyat kasb etgan 1973-yilgi Vashington kelishuvi va 1974-yilgi Vladivostok uchrashuvlarini ham tadqiq etadi. 1973-yil Brejnev AQShga qilgan tashrifi vaqtida "Strategik hujumkor qurollari tarqalishini kelajakda oldini olishning asosiy prinsiplari haqida" (OSV 2) kelishuv imzolaydi. R.G.Tumkovskiy ta'kidlashicha "mamlakatlar bu shartnoma asosida bir birlarining havfsizligiga qiziqishi kuchaygan"⁵³. Shuningdek, yuqorida keltirganimiz G.I.Svyatov keltirgan ma'lumotlarni bergan. 1974-yil 23-24-noyabr kunlari Vladivostokda Brejnev va Ford o'rtasida ishchi uchrashuv bo'lib, unda 2400dan ziyod yadro qurolini (ular tarkibiga МБР-межконтинентальные баллистические ракеты - qitalararo ballistik raketa, БПЛ- баллистические ракеты на подводных лодках-ракетоносцах, strategik portlatuvchilar kirardi) saqlamaslik, hamda har ikki davlat o'z chegaralarida 1320 ta ballistik raketalarni saqlash majburiyatini olgani ochib berilgan⁵⁴. V.F.Petrovskiyning "Борьба СССР за разрядку в 70-годы" maqolasida Sovet ittifoqi tashqi siyosatida iliqlashuv davri 60-yillarning o'rtalarida boshlangani, bunda asosan sotsialistik davlatlar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish amalga oshirilgani ta'kidlangan. Yevropa davlatlari ichida ilk bor 60-yillar ikkinchi yarmida Fransiya bilan yaqinlashuv ro'y beradi. "1966-yil Fransiya prezidenti Sharl de Goll Sovet Ittifoqida bo'lib o'zaro aloqalar asosini yaratib berdi"⁵⁵. Muallif munosabatlar yaqinlashuvini shunday baholaydi: "Sovet ittifoqi va AQSh o'rtasidagi

⁵¹ Р.Г.Тумковский. Советско-Американские переговоры об ограничении стратегических вооружений // Вопросы истории.1979. № 3., ст.73.

⁵²Р.Г.Тумковский. О'sha joyda., ст.74.

⁵³ Р.Г.Тумковский. О'sha joyda., ст.77.

⁵⁴ Р.Г.Тумковский. О'sha joyda., ст.77.

⁵⁵ В.Ф.Петровский. Борьба СССР за разрядку в 70-годы // Новая и новейшая история.1981. № 1 ст.5.

munosabatlarning iliqlashuvi Sovet ittifoqining kapitalistik davlatlar bilan munosabatlarining yo'lga qo'yilishiga sabab bo'ldi"⁵⁶.

Sovet-Amerika munosabatlaridagi iliqlik 70-yillarning ikkinchi yarmida ham saqlanib qoldi. Bu davrda bir qancha o'zaro munosabatlarga oid shartnomalar imzolanib, aloqalar yangi bosqichga ko'tariladi. Bu davrdagi munosabatlar ham Rossiya mualliflari tomonidan yoritilib berilgan. Xususan, I.Sevostyanovning "США в международных отношениях середины 70-х годов", A.I.Grishenko va A.I.Stepanovlarning "Хельсинки: борьба за мир, безопасность и сотрудничество в Европе", shuningdek biz yuqorida so'z yuritgan V.F.Petrovskiyning "Борьба СССР за разрядку в 70-годы", G.I.Svyatovning "О политике США в области строительства вооруженных сил и ограничения вооружений", R.G.Tumkovskiyning "Советско-Американские переговоры об ограничении стратегических вооружений" maqolalarida ochib berilgan. I.Sevostyanov "США в международных отношениях середины 70-х годов" maqolasida AQShning tashqi siyosati va xalqaro ahvoliga to'xtaladi. Shu bilan birga Sovet ittifoqi bilan 1976-yilda 1972 yilgi OSV 2 ga qo'shimcha ravishda raketaga qarshi tizimni qisqartirish masalasida tuzilgan shartnoma tilga olib o'tilgan⁵⁷. A.I.Grişyenko va A.I.Stepanovlarning "Хельсинки: борьба за мир, безопасность и сотрудничество в Европе" maqolasida esa Хельсинкида Yevropa davlatalari tomonidan imzolangan o'zaro hamkorlik va havfsizlik masalasidagi shartnomaga to'xtalib o'tilgan. "Asosiy muhim hujjat bu ishtirokchi davlatlar tomonidan imzolangan prinsiplar deklaratsiyasi bo'ldi".⁵⁸ V.F.Petrovskiyning "Борьба СССР за разрядку в 70-годы" maqolasida yuqoridagi fikrlarni mantiqiy davomi sifatida bu deklaratsiyaning Sovet ittifoqi tomonidan 1977-yil dekabrda qabul qilingani

⁵⁶ В.Ф.Петровский. Борьба СССР за разрядку в 70-годы. // Новая и новейшая история.1981. № 1 ст.6.

⁵⁷ И.Севостьянов. США в международных отношениях середины 70-х годов. // Вопросы истории. 1982. N5. ст. 75.

⁵⁸ А.И.Грищенко, А.И.Степанов. Хельсинки: борьба за мир, безопасность и сотрудничество в Европе. // Вопросы истории.1985.№ 10. ст 4

ta'kidlangan. V.F. Petrovskiyning fikricha "Tinchlik va havfsizlik uchun amalda bo'lgan harakatlar Sovet ittifoqi va AQSh o'rtasida harbiy-strategik tenglikni ta'minladi"⁵⁹. G.I. Svyatovning "О политике США в области строительства вооруженных сил и ограничения вооружений" maqolasining keyingi qismida munosabatlar yaxshi yo'l qo'yilib, bunda AQSh davlat kotibi S. Vensning o'рни alohida bo'lgani ko'rsatilgan. "1977-yilda Vladivostokda strategik qurollarni cheklash va qisqartirishga doir kelishuvlar davom etdi. 1977-yil 18-20 may kunlari Jenevada Sovet ittifoqi tashqi ishlar vaziri A.A. Gromiko bilan S. Vens o'rtasida Vladivostokda strategik qurollarni rivojlanishiga qarshi hamkorlik yuzasidan kelishuvlar imzolandi"⁶⁰. R.G. Tumkovskiyning "Советско-Американские переговоры об ограничении стратегических вооружений" maqolasining ikkinchi qismida yuqoridagi muallifning fikrlarining bevosita mantiqiy davomi berilgan. "1978-yilning oxirgi oylarida Sovet-Amerika oliy darajadagi uchrashuvlari bo'lib o'tdi: 1978-yil 30-sentyabrda Gromiko Vashingtonda Karter bilan uchrashdi, 1978-yil 23-oktyabrda esa Brejnev S. Vensni qabul qildi. Bu uchrashuvlarning asosiy masalasi OSV 2 bo'ldi"⁶¹.

AQShning qurollanish siyosati har doim Sovet davlati mualliflari nigohida bo'lib kelgan. Bu holatni XX asrda ham XXI asrda ham kuzatishimiz mumkin. Rus mualliflaridan G.I. Svyatov "О политике США в области строительства вооруженных сил и ограничения вооружений" maqolasida AQShning qurollanish masalasi yoritib berilgan

AQSh va G'arb davlatlarining olib borgan militarizm siyosati natijasida sovuq urush qurollanish poygasiga aylanib ketdi. Buning oqibatida AQShda harbiy - sanoat komplekslari vujudga keldi. AQSh aholisi katta hajmdagi harbiy

⁵⁹ В.Ф.Петровский. Борьба СССР за разрядку в 70-годы. // Новая и новейшая история. 1981. №1 ст.7.

⁶⁰ Г.И.Святлов. О политике США в области строительства вооруженных сил и ограничения вооружений. // Вопросы истории. 1978. № 2. ст. 86.

⁶¹ Р.Г.Тумковский. Советско-Американские переговоры об ограничении стратегических вооружений. // Вопросы истории. 1979. № 3. ст.83-84.

qurollar yaratilayotganligining guvohi bo'ldi. G.I.Svyatov “О политике США в области строительство вооруженных сил и ограничения вооружений”, maqolasida yozishicha “1974 – yilda J.Ford hukumat tepasiga kelgach, AQSh harbiy siyosati o'zgarib qurollanishga nisbatan e'tibor kuchaytiriladi”⁶². Bu jarayonda ayniqsa AQSh mudofa vazirlari J.Shlesinjer va uning o'rniga kelgan D.Ramsfeldlar katta rol o'ynagan degan fikri ahamiyatlidir. Muallif keltirishicha D.Ramsfeld Pentagon rahbarligini egallagandan so'ng harbiy harajatlarni 1977 – yilda 113 mlrd. dollordan 1978 – yilda 123,2 mlrd dollorga oshirishni o'z dasturida aytgan. Buning asosi sifatida D.Ramsfeld Sobiq ittifoqdan qurollanish jihatdan AQSh ortda qolayotganligini keltirgan,⁶³ degan fikrlari ham diqqatga molik.

Shunday qilib ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet – Amerika munosabatlari tarixida “siyosiy iliqlashuv” davri XX asrning 60 – yillarining o'rtasida boshlanib 70 – yillar oxirigacha davom etdi. Bu davrda Sovet davlati va AQSh o'rtasidagi munosabatlarning tamal toshlari qo'yildi. Dunyoning bu ikki davlati dunyo yadro quroli ustidan nazorat o'rnatish xususida o'zaro kelishib oldilar. Bu esa dunyoning keyingi havfsizligida muhim rol o'ynadi. Ammo bu iliqlik 80 – yillarga kelib zavol topdi, Sovet – Amerika munosabatlarida keskinlashuv jarayoni ro'y berdi.

⁶² Г.И.Святов. О политике США в области строительства вооруженных сил и ограничения вооружений. // Вопросы истории. 1978. № 2, ст.72.

⁶³ Г.И.Святов. О'sha joyda. ст.74

1.3. Sovet – Amerika munosabatlaridagi “murakkab davr” (80 – 90 – yillar boshi) muammolari sho’rolar davriy matbuotida yoritilishi.

Sovet – Amerika munosabatlarining iliqlashuv davrining ilk qadamlari 60 – 70 –yillarda qo’yildi. Bu davr tarixiy adabiyotlarga “detant” (“iliqlik”) deb kirdi. Munosabatlar o’zining kulminasiyasiga yetishiga bir necha omillar sabab bo’ldi.

Birinchidan: Har ikki davlat ham iqtisodiy tanglikka tushib qolgan edi. Shusiz ham qiynalayotgan iqtisodga harbiy harajatlar ortiqcha edi;

Ikkinchidan: Dunyoda qurollanish katta fojeali oqibatlarga olib kelishini anglab yetgan edi;

Uchinchidan: Har ikki davlat bir biriga haqiqiy fojeali oqibatlarga olib keluvchi dushmanga yetgandi. Buni oldi olinmasa navbatdagi urush bo’lishi muqarrarligini har ikki davlat anglab yetdi.

Sovet-Amerika munosabatlarida XX asrning 80-yillariga kelganda salbiy o’zgarish ro’y beradi. Bunga birinchi navbatda Afg’oniston masalasi sabab bo’ladi. Shuningdek 1981-yilda AQShda hukumat tepasiga Ronald Reygan kelgan bo’lib, u dastlabki boshqaruvi davrida Sovet ittifoqi bilan yaxshi munosabatlar o’rnatib bo’lmaydi deb hisoblardi. Lekin, Reygan hokimiyatga kelgunga qadar ham munosabatlar yaxshi bo’lib, bu holat NATO va Varshava ittifoqi davlatlari o’rtasida munosabatlar iliqlashuviga olib kelgan edi. Sovet-Amerika munosabatlarining 80-yillar boshlarida iliq davrini rus mualliflaridan L.F.Il’ichev va Yu.N.Raxmaninovlarning “СССР в борьбе за реализацию программы мира на 80-е годы” va N.N.Novoselovaning “СССР и США:два противоположных подхода к проблеме международной безопасности” kabi maqolalarida yoritib berilgan. L.F.Il’ichev va Yu.N.Raxmaninovlarning “СССР в борьбе за реализацию программы мира на 80-е годы” maqolasida Sovet ittifoqining tinchlik yo’lidagi 80-yillar boshidagi dasturlari ochib beriladi. Shuningdek Amerika tomoni tinchlik yo’lidagi kelishuvlarda ishtirok etsada, ammo “1980-yil 1-sentabrda ko’p marta foydalanishga mo’ljallangan

“Shattl”deb nomlangan kosmik kemandi fazoga chiqarilishi samoviy qurollanishning boshlanishidan darak berardi⁶⁴, deb ta’kidlaganlar mualliflar. Bu bilan AQSh Sovet ittifoqiga nisbatan bo’lgan munosabatini o’zgartirganini ko’rsatardi. Mualliflar yana davom etganlar “Ular yadro qurollarini cheklash o’rniga, ishlab chiqarishni oshirdilar va “MX”, “Traydent” va “Pershing” nomli raketalarini ko’paytirdilar. Bu bilan AQSh yadro urushiga tayyorgarlik ko’rgandi va bu urushda g’alabani ko’zlagan edi⁶⁵. Shu bilan birga maqolada mualliflar asosan Sovet davlatining 80 – yillarda yadro qurollanishiga qarshi olib borgan siyosatini ham ochib berishga uringan. “Hozirda dunyodagi strategik qurollar orasida insoniyat uchun eng xavflisi yadro quroli. Sovet ittifoqi buni hal etmoqqa urinmoqda. Negaki Sovet ittifoqi yadro poygasini oxiri nima bilan tugashini biladi. Bu hususidagi ma’ruzalari bilan L.I.Brejnev SSSR profsoyuzi XVII sezida va VLKSM ning XIX sezida ta’kidlab o’tgan edi⁶⁶. Amerika esa garchi Sovet davlati bilan yadro qurollarini tarqatmaslik to’g’risida kelishib olgan bo’lsada, qurollanishni davom ettirdi. Bu hususida 1982-yil Nyu-Yorkda bo’lgan press-konferensiyada A.A.Gromiko “AQShning Sovet ittifoqi va Amerika Qo’shma Shtatlari o’rtasidagi strategik qurollar bo’yicha qarashlari tezlik bilan o’zgarib turibdi⁶⁷, deb ta’kidlagan edi. Muallif A.A.Gromikoning fikrlarini tasdig’i sifatida AQSh tomonidan turli hududlarga yadro raketalarining joylashtirilganligini ko’rsatgan. Bu vaqtda Pentagon MBR ning yangi tizimi “MX”ni yaratdi, dengizda “Traydent-1” va “Traydent-2” raketalarini, og’ir bombardimonchi “B-1B”, “Stels” hamda uzoq masofaga uchuvchi qiruvchi raketalarini joylashtirdi⁶⁸.

Mualliflar Sovet davlatining asosiy tinchlik yo’lidagi qarashlarini ham keltirib o’tgan. “Sovet ittifoqi strategik qurollarni poygasiga doir bo’lgan,

⁶⁴ Л.Ф.Ильичев, Ю.Н.Рахманинов. СССР в борьбе за реализацию программы мира на 80-е годы. // Новая и новейшая история. 1982. № 6. ст. 13.

⁶⁵ Л.Ф.Ильичев, Ю.Н.Рахманинов. О’sha joyda. с.13.

⁶⁶ Л.Ф.Ильичев, Ю.Н.Рахманинов. О’sha joyda. с.15.

⁶⁷ Л.Ф.Ильичев, Ю.Н.Рахманинов. О’sha joyda. 16.

⁶⁸ Л.Ф.Ильичев, Ю.Н.Рахманинов. О’sha joyda. с.16.

istalgan ko'rinishdagi barcha kanallarni tugatadi. Bu kabi qurollarni yangi turlarini yaratish taqiqlanadi, kelishuvlar doirasida ularni iloji boricha cheklaydi”⁶⁹.

Mualliflar Sovet davlatining bunday tinchlik yo'lidagi qarashlarga kelishini quyidagicha baholaydi. “Sovet davlati tomonidan bu qarashlar dunyo yadro zahirasi keltirib chiqaradigan xavfini anglab yetgan holda ilgari surilgan edi. Chunki Sovet davlati barcha davlatlarni, tinchlik yo'lini va insoniyat sivilizatsiyasining taqdirini o'ylayotgan edi”⁷⁰. Eng muhim muammo bu davrda Yevropani yadro quroli ortib borish xavfidan himoya qilish edi. Buni L.I.Brejnev VLKSMning XIX sezida so'zlagan nutqida quyidagicha bergan. “Hozirda tinchlik to'g'risida oz gapirilmoqda, Aniq va amaliy ishlar kerak. Bugunning hal etuv vazifasi – Yevropadagi yadro qaram – qarshiligiga barham berish. Bu yerda yadro vositalarini keyingi davrda yoyilishini oldini olish kerak. Yevropani o'z holiga tashlamaslik kerak, negaki u yerda jahon urushining boshlanishining xavfi ikki marta katta. Bu yerda yaratilgan amaldagi qurollar istalgan vaqtda dunyo yadro olovini yoqishi mumkin”⁷¹.

Sovet davlati tashabbusi bilan o'tkazilgan Madrid konferensiyasiga ham mualliflar to'xtalib o'tishgan. Yevropani asrash, harbiy iliqlik masalalarini hal etish va quroldan holi etish maqsadida Sovet davlati va uning ittifoqchilari umumevropa konferensiyasini tashkillashtirdilar. Bu muammo Madrid konferensiyasi markazida bo'ldi. Bu konferensiyani o'tkazish g'oyasi L.I.Brejnev tomonidan ilgari surilgan edi. Unda SSSR o'zining Yevropa qismidagi barcha hududlarida tinchlik hukm surishini taklif etgan⁷². Madrid konferensiyasining yakuniy aktida o'zaro ishonch orqali xavfsizlik va Yevropani

⁶⁹ Л.Ф.Ильичев, Ю.Н.Рахманинов. СССР в борьбе за реализацию программы мира на 80-е годы. // Новая и новейшая история. 1982. № 6. с.16.

⁷⁰ Л.Ф.Ильичев, Ю.Н.Рахманинов. О'sha joyda. с.16.

⁷¹ Л.Ф.Ильичев, Ю.Н.Рахманинов. О'sha joyda. с.16.

⁷² Л.Ф.Ильичев, Ю.Н.Рахманинов. О'sha joyda. с.19.

qurollanishdan holi etish kelishib olindi. Bu aktga 1981 – yil dekabrda betaraf va qo'shilmaydigan davlatlar ham kirdi⁷³.

Shuningdek mualliflar Sovet davlati o'zining ittifoqchi davlatlari bilan ham qurollanishni oldini olish yuzasidan imzolagan shartnomasiga to'xtalib o'tgan. 1982 – yil 18 – fevralda GDR, PXR, SSSR va CHSSR muhim loyihani “Qirg'in qurollarini qisqartirishga va Markaziy Yevropani birinchi bosqichda qirg'in qurolidan holi etish to'g'risida o'zaro kelishuv”ni qabul qildilar⁷⁴. Mualliflar shu bilan birga Afg'oniston masalasiga ham to'xtalib o'tadi. Afg'oniston bilan Sovet ittifoqi o'rtasida 1978-yil 5-dekabrda “Do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va hamkorlik to'g'risi”dagi imzolangan shartnoma asosida 1981-yil 24-avgustda Sovet ittifoqining Afg'oniston Demokratik Respublikasiga yordam bergani asoslanadi⁷⁵. N.N.Novoselova “СССР и США: два противоположных подхода к проблеме международной безопасности” maqolasida 80-yillar boshida munosabatlarga to'xtalib o'tgan⁷⁶. Muallif asosan 1981 – yilda AQSh tomonidan munosabatlarni iliqlashuviga olib kelgan omillar va sabablarga to'xtalib o'tgan. Muallif keltirishicha R.Reygan 1981 – yil iyun oyida SSSR bilan qurollanish ustidan nazorat o'rnatishga doir kelishuvlarni qayta tiklashga qaror qilgan⁷⁷. Munosabatlarning iliqlashuviga Amerika Qo'shma Shtatlarining ichki ahvolining ham bog'liqligini muallif quyidagicha bayon etgan. “Reygan boshqaruvi davri keyingi besh yillik davrida harbiy harajatlarga 1,5 trillion dollar miqdorida mablag' sarflagan”⁷⁸. Muallif keltirgan quyidagi fikr ham ahamiyatli, “SSSR va AQSh o'rtasida hamda Varshava kelishuvi va NATO o'rtasida muvozanatning saqlab turilishi, bizning

⁷³ Л.Ф.Ильичев, Ю.Н.Рахманинов. СССР в борьбе за реализацию программы мира на 80-е годы. // Новая и новейшая история. 1982. № 6. с.20.

⁷⁴ Л.Ф.Ильичев, Ю.Н.Рахманинов. О'sha joyda. с.21.

⁷⁵ Л.Ф.Ильичев, Ю.Н.Рахманинов. О'sha joyda. ст. 22.

⁷⁶ Н.Н.Новоселова. СССР и США: два противоположных подхода к проблеме международной безопасности. // Новая и новейшая история.1981. № 6. ст.3-21.

⁷⁷ Н.Н.Новоселова. О'sha joyda. с.9.

⁷⁸ Н.Н.Новоселова. О'sha joyda. с.13.

planetamizning tinchligini saqlab turadi”⁷⁹. Xalqaro xavfsizlik uchun kurashda SSSR va uning ittifoqchilari Varshava kelishuvi tashkiloti tomonidan 1980 – yil 15 – mayda qabul qilingan Deklaratsiya muhim bo’ldi⁸⁰.

Shuningdek, muallif Sovet ittifoqi tomonidan BMTning bosh assambliyasiga taqdim etgan takliflarini ham bayon etgan. “Sovet ittifoqi BMTning Bosh assambliyasi bo’lishi to’g’risida xabar olgan davrdan boshlab muhim va tezlik bilan “bir qancha harbiy xavfdan holi qilinish kerak bo’lgan hududlar” muammosini qo’ydi, hamda u yerga qo’llanadigan rezolyutsiya loyihasini tayyorladi. SSSRning bu sohadagi bir taklifi – davlatlarni harbiy ittifoqlarga kirishini rad etish, harbiy – siyosiy guruhlar a’zolari sonini oshirmaslik”⁸¹. Keyingi yana bir bildirgan taklifi esa quyidagicha edi. “Barcha davlatlar, Xavfsizlik kengashi a’zolari va ular bilan bog’liq davlatlarni harbiy kelishuvga, 1981 – yil 1 – yanvaridan boshlab ularni qurolli kuchlarini oshirmaslikka va qurollanishni qisqartirishga birinchi qadamni qo’yishga”⁸² undagan edi.

Sovet - Amerika munosabatlarida XX asrning 80 – yillarining birinchi yarmida keskinlik qayta paydo bo’ldi. Bu keskinlikni bir necha omillar keltirib chiqargan edi. Sovet mualliflari A.I.Grishenko va A.I.Stepanovichlar o’zlarining “Хельсинки: борьба за мир, безопасность и сотрудничество в Европе”⁸³ nomli maqolasida ko’rsatib bergan. Mualliflar 1980 va 1983 – yillarda bo’lib o’tgan Madrid konferensiyasini yuqori baholaydi. Bu uchrashuvlar Yevropani harbiy iliqlashuviga va quroldan holi hudud sifatida shakllanishida muhim bo’lgan. Faqat AQSh va uning ba’zi ittifoqchilari Afg’oniston masalasini, 1981 – yil dekabrda Polshada ro’y bergan voqealarni Sotsialistik davlatlar o’zining keyingi

⁷⁹ Н.Н.Новоселова. СССР и США: два противоположных подхода к проблеме международной безопасности. // Новая и новейшая история. 1981. № 3. с.14.

⁸⁰ Н.Н.Новоселова. О’sha joyda. с.15.

⁸¹ Н.Н.Новоселова. О’sha joyda. с.15.

⁸² Н.Н.Новоселова. О’sha joyda. с.15.

⁸³ А.И.Грищенко., А.И.Степанов. Хельсинки: борьба за мир, безопасность и сотрудничество в Европе. // Вопросы истории., 1985. № 10. ст.3-20.

harakatlari uchun plasdarm qilib olmoqda, ularning ichki ishlariga aralashmoqda deb baholagan⁸⁴.

Mualliflar tomonidan bildirilgan quyidagi fikr ham ahamiyatli. “Yadro va kosmik qurollar masalasidagi Jeniva uvhrashuvi, o’zaro qurollanishni qisqartirish va Markaziy Yevropani qurllanishdan holi etish yuzadidan olib borilgan kelishuvlar Stokgolm konferensiyasi va Vena uchrashuvlari Sovet – Amerika munosabatlarining raundini ko’rsatdi. AQSh va NATO ushbu xalqaro forumni qabul qilmadi. Yer yuzida qurollanishni davom ettirdi. Uni boricha samoga olib chiqdi”⁸⁵.

Sovet ittifoqi va AQSh o’rtasidagi munosabatlarning XX asr 80-yillari o’rtasida yaxshi yo’lga qo’yilishida har ikki tarafning o’rni bo’ldi. 1985-yil 11-martda KPSS rahbarligiga M.S.Gorbachyov saylanadi. U mamlakatda “qayta qurish” siyosatini olib borib, mamlakatni harbiy harajatlardan cheklashga harakat qildi. M.S.Gorbachyov lavozimga saylangan kuni MK KPSSning Plenumida qilgan nutqida keyingi kunda SSSR va AQSh o’rtasida Jenevada uchrashuv bo’lib o’tishini ma’lum qilgan⁸⁶. Shu boisdan u Sovet-Amerika munosabatlarida yangi davrni ochib beradi. Ikkala davlat o’rtasida qurollar ustidan nazorat masalasi yana o’rtaga chiqarildi. Shuningdek bu davrga kelib AQSh prezidenti R.Reygan ham munosabatlarni yaxshilash uchun harakat qilar edi. Bunga Karib inqirozi, Vyetnam urushi, qurollanish poygasi, harbiy harajatlarning o’sib borishi sabab bo’ldi. Oqibatda Reygan tomonidan Sovet ittifoqiga bir necha bor kelishuvlar yuzasidan notalar yuborilib, ular munosabatlar rivojlanishida muhim rol o’ynadi. Ikkala davlat o’rtasida XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmida 3 ta xalqaro ahamiyatga ega bo’lgan shartnoma: Jeneva, Reykyavik va Vashington shartnomalari imzolandi. Sovet ittifoqi va Amerika o’rtasida imzolangan ushbu shartnomalar va ularni tarixiy

⁸⁴ А.И.Грищенко., А.И.Степанов. Хельсинки: борьба за мир, безопасность и сотрудничество в Европе. // Вопросы истории., 1985. № 10. ст.8.

⁸⁵ А.И.Грищенко., А.И.Степанов. О’ ст.18.

⁸⁶ Иванян Э.А. Рональд Рейган. Хроника жизни и времени. М: 1991., с.346.

mohiyati R.G.Bogdanovning “Рейкьявик: на путях нового политического мышления”, В.Н.Пономарёвнинг “Историческое значение советско-американского договора от 8 декабря 1987 г.” nomli maqolalarida ochib berilgan. R.G.Bogdanovning “Рейкьявик: на путях нового политического мышления” maqolasida yadro qurollarini qisqartirish masalasi ko’tarib chiqilgan. Muallif AQSh tomoni Sovet – Amerika munosabatlarini yaxshilashga R.Reygan hokimiyatga kelgandan so’ng tayyorgarlik ko’rganligi, mamlaktni qurollanishdan holi etishga kirishanini aytib o’tgan. AQSh prezidenti Irlandiya parlamentida 1984 – yil 9 – iyun kuni qilgan nutqida tinchlik yo’lida ittifoqqa kirish to’g’risida o’ziga hos belgi berdi⁸⁷. 1985 – yil Jenevada yuqori saviyada bo’lib o’tgan uchrashuv Sovet – Amerika munosabatlariga keng eshiklarni ochib berdi⁸⁸. 1986 – yil yanvar oyida ikki davlat rahbarlarining nvbatdagi uchrashuvi Reykyavikda bo’lib o’tdi. Reykyavikda imzolangan shartnomada ilk bora 2000-yilgacha yadro qurollarini cheklash masalasi qo’yilgani berilgan. Shuningdek unda Reykyavik uchrashuvi shunday baholangan: “bu kabi uchrashuvlar tarixida ilk bor amaliy jihatdan yadro qurolidan holi bo’lish jarayoni boshlandi”⁸⁹. “Ayni ushbu kelishuv Sovet ittifoqi va Amerika rahbarlarining barcha yadro qurollarini qisqartirishga doir qarashlarini belgilab berdi”⁹⁰. Reykyavikda shuningdek 1986-yil 11-12 oktabr kunlari R.Reygan va M.S.Gorbachyovning ishchi uchrashuvi bo’lib, unda Gorbachyov Reyganga “Sovet ittifoqi va AQShning umumiy strategik hujumkor qurollari ro’yxati”ni taqdim etdi va Sovet ittifoqi uni 50% ga qisqartirishga roziligini bildirdi, Amerika tomoni ham buni qo’llab quvvatladi⁹¹. Muallif uchrashuvning tarixiy ahamiyatini quyidagicha ko’rsatib beradi. “Reykyavikda Sovet – Amerika

⁸⁷ Р.Г.Богданов. Рейкьявик: на путях нового политического мышления. // Вопросы истории. 1987. № 4 ст.13.

⁸⁸ Р.Г.Богданов. О’sha joyda. ст.13.

⁸⁹ Р.Г.Богданов. О’sha joyda. ст.16.

⁹⁰ Р.Г.Богданов. О’sha joyda. ст.15.

⁹¹ Р.Г.Богданов. О’sha joyda. ст.23.

munosabatlarining yangi bosqichi boshlandi va dunyo siyosati tubdan o'zgardi"⁹².

B.N.Ponomaryovning “Историческое значение советско-американского договора от 8 декабря 1987 г.”⁹³ maqolasida 1987-yil 8-dekabrda Reygan va Gorbachyovning Vashingtonda “Sovet va Amerika yaqin va o'rta olislikdagi yadro raketalarini qisqartirish to'g'risidagi” kelishuvi ochib berilgan. Imzolangan shartnoma yadroviy qurollarni qisqartirish jarayonidagi dastlabki muhim qadam sifatida baholangan. Muallifning maqolasida 1987 – yil 8 – dekabrda shartnoma global termo – yadro halokatini oldini olishga xizmat qiladi degan fikri diqqatga sazovor bo'ldi.

Shu asnoda Sovet – Amerika munosabatlaridagi qarama – qarshiliklarga chek qo'yildi. Bu esa keyingi davrda “Sovuq urush”ning zavol topishi uchun qo'yilgan muhim qadam va tamal toshi bo'lib qoldi. Endilikda har ikki davlat ham dunyoda tinchlikni naqadar qimmat ekanligini tushunib yetdi desak hato bo'lmaydi. Amerika ham Sovet davlati ham ortiqcha harbiy harajatlardan charchagan edi. Sovet ittifoqining iqtisodi esa tushkun ahvolga tushgan edi. Amerika ham iqtisodiy jihatdan muammolarga duchor bo'la boshlagan edi. Shu sababli ham har ikki davlat ham qurollarni yo'q qilishdek muhim kelishuvni qo'llab quvvatladi. Buning asnosida dunyoning ko'plab hududlari yadro va qirg'in qurollaridan holi etildi. XX asrning 90 – yillari boshida “Sovuq urush” nihoyasiga yetib, dunyoning ikki guruhga bo'linib ketgan davlatlari orasidagi kurashga chek qo'yildi.

⁹²Р.Г.Богданов. Рейкьявик: на путях нового политического мышления // Вопросы истории.1987. № 4. ст.24.

⁹³ Б.Н.Пономарев. Историческое значение советско-американского договора от 8 декабря 1987 г. // Новая и новейшая история.1988. № 2. ст .15.

2 BOB. Ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet – Amerika munosabatlari Rossiya mualliflari talqinida.

2.1. Paradigmalarining o'zgarishi, yangicha fikrlash va qarashlar.

XX asrning ikkinchi yarmida Sovet – Amerika munosabatlari butun xalqaro munosabatlarning tarkibiy qismi, qolaversa uning mazmunini tashkil etardi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Sovet-Amerika munosabatlari xalqaro munosabatlarda muhim rol o'ynagan. Aynan o'sha davrda dunyo miqyosida bo'lgan barcha siyosiy voqyealar, u fojiali damlar yoki “detant” bosqichi bo'larmidi, ular albatta Sovet – Amerika munosabatlari bilan bog'langan edi. Shu boisdan ham Sovet-Amerika munosabatlari tarixchilar diqqat markazida bo'lib kelgan.

Munosabatlarga oid bo'lgan dolzarb masalalar Rossiya mualliflar tomonidan davriy matbuotda ham batafsil yoritilib borilgan. Ular bergan malumot bugungi kunda Sovet-Amerika munosabatlarini o'rganishda muhim tarixiy manba bo'lib hizmat qiladi.

Rossiya federasiyasi mualliflari ham ushbu dolzarb muammoni har doim o'rganib kelganlar. Sovet – Amerika munosabatlari sho'rolar davri matbuotida asosan o'sha davr sosializm g'oyalari asosida o'rganilgan va bunda asosan o'sha davrda ochiq bayon yetilgan ma'lumotlardan foydalangan holda munosabatlarni o'rganishgan. Bu davrda chop yetilgan maqolalarning ko'pchiligida asosan munosabatlarning yomonlashuviga sababchi sifatida AQSh davlatini yetirof yetganlar. Sovet davlatini yesa asosan tinchlik istovchi va munosabatlarni yaxshi davom yettirishni hohlovchi davlat sifatida talqin yetgan. Ammo Sovet davlati parchalanib ketgandan keyin mualliflarning qarashlarida ham o'zgarish sodir bo'ldi. Yendilikda ular haqqoniy munosabatlar tarixini ochib berishga harakat qildilar. Mualliflar munosabatlarga oid bir necha o'nlab maqolalarni chop yetishgan. Bu kabi Sovet – Amerika munosabatlarini davriy matbuotda o'rganilishini XXI asr rus davriy matbuot materiallarida ham kuzatish mumkin. Bu mavzu yuzasidan o'sha davrda chop etilgan maqolalar singari hozirgi kunda

ham davriy matbuotda turli maqolalar chop etib kelinmoqda. Agar o'sha davrda matbuotda chop etilgan maqolalarda aynan o'sha davrda ochiq bayon etilgan materiallardan foydalangan bo'lsalar, Sovet ittifoqi tarqab ketgandan so'ng esa tarixchi olimlar o'z maqolalarida arxiv hamda Amerikada chop etilgan o'sha davr davriy matbuoti materiallaridan foydalanib, munosabatlar tarixiga oid bo'lgan holatlarni yoritib berishga harakat qilganlar. Shuningdek, munosabatlarga oid mulohaza va fikrlarini kommunistik qarashlar bilan emas, balki, xaqqoniy va obyektiv berganlar.

Sovet davlati qulab ketgandan so'ng yesa Rossiya tarixchi – olimlari orasida yendilikda ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet – Amerika munosabatlarini o'rganishda arxiv materiallaridan foydalangan holda, yangi qarashlar asnosida, munosabatlarga oid bo'lgan holatlarni bayon qilib berganlar.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet – Amerika munosabatlari bugunga qadar davriy matbuotda yeng ko'p va batafsil yoritilib kelinayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Sovet davlatida ham. Rossiya federasiyasida ham ushbu masala mualliflar tomonidan muntazam davriy matbuotda yoritilib berilgan.

Munosabatlarga oid bo'lgan dolzarb masalalar Rossiya mualliflar tomonidan davriy matbuotda ham batafsil yoritilib borilgan. Ular bergan malumot bugungi kunda Sovet-Amerika munosabatlarini o'rganishda muhim tarixiy manba bo'lib hizmat qiladi.

Bu holatni XXI asr rus davriy matbuot materiallarida ham kuzatish mumkin. Bu mavzu yuzasidan o'sha davrda chop etilgan maqolalar singari hozirgi kunda ham davriy matbuotda turli maqolalar chop etib kelinmoqda. Agar o'sha davrda matbuotda chop etilgan maqolalarda aynan o'sha davrda ochiq bayon etilgan materiallardan foydalangan bo'lsalar, Sovet ittifoqi tarqab ketgandan so'ng esa tarixchi olimlar o'z maqolalarida arxiv hamda Amerikada chop etilgan o'sha davr davriy matbuoti materiallaridan foydalanib,

munosabatlar tarixiga oid bo'lgan holatlarni yoritib berishga harakat qilganlar⁹⁴. Shuningdek, munosabatlarga oid mulohaza va fikrlarini kommunistik qarashlar bilan emas, balki, haqqoniy va obyektiv berganlar. Bu borada ayniqsa XXI asrda yangicha qarash orqali bayon etilgan rus tarixchilarining quyidagi maqolalarini aytish joizdir.

Bunday yangi qarashlar asosida dunyoga kelgan maqolalar sirasiga N.V.Kochkinning “СССР, Англия, США и “турецкий кризис” 1945 – 1947 гг” N.N. Bonsevichning “Американские СМИ о Советской России в 1947 году”⁹⁵, V.S.Xristoforovning “Н.С.Хрущёв и Дж. Кеннеди: Подготовка и проведение встречи в Вене в 1961 году. По документам Российских Архивов”⁹⁶, N.P.Kalmikovning “Россия и США в XX веке”⁹⁷, S.V. Xomutinkinining “Генри Киссинджер и Советско-Американские отношения в 1970-е гг.”⁹⁸, A.G. Dulyanning “Советско-Американские отношения. Годы разрядки, 1969-1972.”⁹⁹, V.V.Sokolovning “Американский миллионер А.Хаммер сторонник разрядки и мира между СССР и США. По материалам Архива Президента РФ”¹⁰⁰, V.K.Volkovning “Новой мировой порядок” и Балканский кризис 90 – х годов”¹⁰¹, M.M.Narinskiyning “Советское руководство и кризис в Персидском заливе (1990 – 1991 годы).

⁹⁴ Умаров.С. Россия муаллифлари томонидан XX асрнинг 70 – 80 йиллари Совет – Америка муносабатлари баъзи бир долзарб муаммоларининг ёритилиши (XXI аср даврий матбуоти асосида) // СамДУ магистрантларининг 2011 йилги илмий тадқиқот ишлари якунлари бўйича XII ва талабаларнинг LXX илмий анжуманлари материаллари. Самарқанд 2012., 206 бет.

⁹⁵ Н.Н.Бонцевич. Американские СМИ о Советской России в 1947 году. // Известия Саратовского университета 2011., том 11., Серия История. Международные отношения., выпуск 2, часть 2., с.88-96.

⁹⁶ В.С.Христофоров. Н.С.Хрущёв и Дж. Кеннеди: Подготовка и проведение встречи в Вене в 1961 году. По документам Российских Архивов. // Новая и новейшая история. 2011, №3 с.15-34.

⁹⁷ Н.П.Калмыков. Россия и США в XX веке. // Новая и новейшая история. 2011, №3 с.122-130.

⁹⁸ Хомутинкин С.В. Генри Киссинджер и Советско-Американские отношения в 1970-е гг. // Россия и Америка в XXI веке. 2007, № 1,

⁹⁹ А.Г.Дульян. Советско-Американские отношения. Годы разрядки, 1969-1972. // Новая и новейшая история. 2008, №2 с.82-89.

¹⁰⁰ В.В.Соколов. Американский миллионер А.Хаммер сторонник разрядки и мира между СССР и США. По материалам Архива Президента РФ. // Новая и новейшая история. 2009, №1 с.160-182.

¹⁰¹ В.К. Волков. “Новой мировой порядок” и Балканский кризис 90 – х годов. // Новая и новейшая история. 2002. № 2. ст.11-32.

Новые материалы”¹⁰² va R.V.Dolgilevichning “ Вопрос о статусе Берлина. 1944 – 1990 годы”¹⁰³ kabi maqolalarini kiritish mumkin.

Xulosa qilib qaraydigan bo’lsak, biz yuqorida ko’rib o’tgan maqolalarimizning manbaviy asosini arxiv materiallari tashkil etadi. Bu esa Sovet-Amerika munosabatlarini rus tarixchilari tomonidan davriy matbuotda yangi qarash asosida yoritishga harakat qilinganligi belgilab beradi¹⁰⁴.

¹⁰² М.М.Наринский. Советское руководство и кризис в Персидском заливе (1990 – 1991 годы). Новые материалы // Новая и новейшая история. 2007. № 3. ст.80-102.

¹⁰³ Р.В.Долгилевич. Вопрос о статусе Берлина. 1944 – 1990 годы. // Новая и новейшая история. 2011. № 3. ст.52.

¹⁰⁴ Умаров.С. Россия муаллифлари томонидан XX асрнинг 70 – 80 йиллари Совет – Америка муносабатлари баъзи бир долзарб муаммоларининг ёритилиши (XXI аср даврий матбуоти асосида) // СамДУ магистрантларининг 2011 йилги илмий тадқиқот ишлари якунлари бўйича XII ва талабаларнинг LXX илмий анжуманлари материаллари. Самарқанд 2012., 208 бет.

2.2. Rossiya davriy matbuoti Yalta – Postdam tartiboti yillaridagi (1946 – 1985 y.y.) Sovet – Amerika munosabatlari to'g'risida.

XX asrning ikkinchi yarmida Sovet – Amerika munosabatlari butun xalqaro munosabatlarning tarkibiy qismi, qolaversa uning mazmunini tashkil etardi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Sovet-Amerika munosabatlari xalqaro munosabatlarda muhim rol o'ynagan. Aynan o'sha davrda dunyo miqyosida bo'lgan barcha siyosiy voqyealar, u fojiali damlar yoki “detant” bosqichi bo'larmidi, ular albatta Sovet – Amerika munosabatlari bilan bog'langan edi. Shu boisdan ham Sovet-Amerika munosabatlari tarixchilar diqqat markazida bo'lib kelgan.

1945 yil 4-12 fevralda Qrimning Yalta shahrida uch buyuk davlat- SSSR, AQSh, Buyuk Britaniya hukumat boshliqlari - Stalin, Ruzvelt, Cherchill va ularning maslahatchilari ishtirokida konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiyada Germaniyaga qarshi birgalikda urush harakatlarini tezlashtirib olib borish rejalari, urush harakatlarini Germaniya so'zsiz taslim bo'lgandan keyin to'xtatish haqida bitim qabul qilindi. Konferensiyada AQShning Germaniyani 5 qismga, Angliyaning esa Germaniyani 3 qismga bo'lish to'g'risidagi takliflari rad etilib, kelgusi Germaniyani yagona davlat sifatida saqlab qolish to'g'risida ham bir bitimga kelindi.

Konferensiya gitlerchilar keltirgan zararlar va xarobalar uchun Germaniyadan 20 mlrd. dollar (SSSRga 10 mlrd) miqdorida reparasiya olish to'g'risida kelishib oldilar. Konferensiyada tinchlik va xavfsizlikni saqlash va ta'minlash uchun Birlashgan millatlarning xalqaro tashkilotini tuzish to'g'risida ham kelishib qaror qabul qildilar.

Konferensiyada Germaniya so'zsiz taslim bo'lgandan keyin 2-3 oy ichida SSSRning Yaponiyaga qarshi urushga kirishi to'g'risida yashirin bitim tuzildi;

Janubiy Saxalinni, unga yaqin orollarni va Kuril orollarini Yaponiyadan SSSRga berilishi masalasi, Port-Artturni SSSRning harbiy-dengiz bazasi sifatida qayta ijaraga berish va boshqa masalalar ko'rildi.

Sovet – Amerika munosabatlari ikkinchi jahon urushidan so'ng ziddiyatlarga kirib qoldi. Bu holatni rus muallifi N.V.Kochkin o'zining “СССР, Англия. США и “турецкий кризис” 1945 – 1947 гг” deb nomlangan maqolasida ikkinchi jahon urushi tugab, “sovuq urush”ni kelib chiqishini adabiyotlarga “turk inqirozi” nomi bilan Qora dengiz bo'yi masalasi bilan bog'lagan. Bunda muallif Rossiya arxiv materiallaridan va voqyea ishtirokchilari bo'lganlarning yesdaliklaridan foydalangan¹⁰⁵. Maqolada turk inqirozini kelib chiqargan Qora dengiz bo'yi masalalariga to'xtalgan. Muallif keltirishicha Qora dengiz bo'yi masalasida Angliya tomonini Amerika Qo'shma Shtatlari tomonidan qo'llab quvvatlanishi Sovet davlati bilan munosabatlarning yomonlashuviga va “sovuq urush”ning kelib chiqishiga sabab sifatida ko'rsatib bergan¹⁰⁶. Muallif ko'rsatishicha Sovet davlati rahbari Stalin, tashqi ishlar vaziri Molotov tomonidan bir necha yillar keyin tan olib aytishicha, Turkiya masalasini: “Stalin barchasini qonuniy bo'lishini, bu muammoni BMT orqali hal yetishni hohlardi”¹⁰⁷. Muallif shuningdek, Rossiya hukumati Moskvadagi AQSh elchisi A.Garrimanga Molotov boshchiligida 1945 – yil 3- noyabrda nota yo'llaganligini, unda asosiy masala Montre Konvensiyasini o'zgartirish, Millatlar ligasini Birlashgan Millatlar bilan almashtirishni taklif etgan¹⁰⁸. Montre Konvensiyasi 1936 – yil 20 – iyulda buyuk davlatlar tomonidan qabul qilingan bo'lib, unda Qora dengiz bo'yi masalasi kelishib olingan edi. Angliya tomoni esa ikkinchi jahon urushidan so'ng Qora dengiz bo'yi masalasini o'z manfaatlari asnosida hal etishni hohlardi.

Muallif keltirishicha AQSh tomoni Qora dengiz qirg'oq bo'yi masalasini Montre Konvensiyasi shartlari asosida belgilanishiga qarshi emasdi. Ammo

¹⁰⁵ Н.В.Кочкин. СССР, Англия. США и “турецкий кризис” 1945 – 1947 гг // Новая и новейшая история. 2002. №3. с.58 - 77.

¹⁰⁶ Н.В.Кочкин. О'sha joyda. с.62.

¹⁰⁷ Н.В.Кочкин. О'sha joyda. с.62.

¹⁰⁸ Н.В.Кочкин. О'sha joyda.с.68.

Sovet davlati ikkinchi jahon urushidan so'ng bu masalani BMT tomonidan hal etilishini bildirgan¹⁰⁹.

Muallif fikricha SSSRning O'rta Yer dengiziga chiqishiga birdan bir AQSh halaqit berayotgan edi. AQSh "Trumen doktorinasi"ni qabul qilishi va Turkiyani Buyuk Britaniya va Amerika Qo'shma Shtatlari tomonidan qo'llab quvvatlashi asnosida Turkiyani bu hududda o'z pozitsiyasini tiklab olganligini e'tirof etgan¹¹⁰.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Sovet –Amerika munosabatlarida o'zaro qarama-qarshiliklar yuzaga keldi. Bunga birinchi navbatda Sovuq urushning boshlanganligi sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan esa Amerika hukumati tepasiga kelgan yangi rahbarlar tomonidan olib borilgan targ'ibotlar ham sabab bo'lgan. Rossiya muallifi hisoblangan N.N. Bonsevich o'zining "Американские СМИ о Советской России в 1947 году" maqolasida AQShda chop etilgan davriy matbuot materiallaridan foydalangan holda 1947 –yilda Amerika tashqi siyosatida Sovet ittifoqiga nisbatan munosabatlarda o'zgarish bo'lishiga olib kelgan sabablarni ochib berishga harakat qilgan. Maqolada asosan 1947 – yilda Amerika matbuotida chop etilgan maqolalar asosida 1947 – yilda Sovet ittifoqi va Amerika Qo'shma Shtatlarining eski ittifoqchilardan qarama – qarshi tomonlarga aylanganligi ko'rsatib berilgan. Muallif keltirishicha, Sovuq urush boshlanishi bilan dunyoning ikkita buyuk davlatlari o'rtasida xalqaro qarama – qarshilik yuzaga kelib qoldi. Har ikki davlat o'zining g'oyalarini targ'ib qila boshladi. Bu jarayonda Sovet ittifoqi o'zining do'stona g'oyalarini saqlab qoldi. Ammo Amerika boshqacha yo'l tutdi. AQSh Kongressida 1947 – yilda maxsus targ'ibot guruhi tuzildi va Marshall rejasi ishlab chiqildi. Bu orqali AQSh o'z targ'ibotini (Sovet ittifoqiga qarshi) butun informatsion kanallarga yoydi¹¹¹. Shuningdek, muallif ta'kidlashicha Amerika jamiyatida ikkinchi jahon urushida

¹⁰⁹ Н.В.Кочкин. СССР, Англия, США и "турецкий кризис" 1945 – 1947 гг // Новая и новейшая история. 2002. №3. с.72.

¹¹⁰ Н.В.Кочкин. О'sha joyda.с.77.

¹¹¹ Бонцевич Н.Н. Американские СМИ о Советской России в 1947 году // Известия Саратовского университета 2011. том 11. Серия История. Международные отношения. выпуск 2. часть 2. с.88.

ittifoqchisi bo'lgan davlatga nisbatan qarshi kayfiyatlar o'sib borgan. Bu ko'rsatgich 1945 – 1947 yillar oralig'ida 38% dan 66% gacha o'sgan¹¹². AQSh davlat kotibi J.Marshall o'zining nutqlaridan birida shunday degan: “Bugun ikki yil o'tdi, bizning munosabatlarimiz 1945 – yilgidan o'zgardi va biz Sovet ittifoqini va rus xalqini ayblay olamiz”¹¹³, deb bergan fikri ham diqqatga sozovordir.

Maqolada muallif AQShda liberallar va konservatorlar tomonidan chiqarilgan davriy matbuot materiallaridan keng foydalangan. Maqolada yozilishicha liberallar tomonidan chop etilgan davriy matbuot materiallarida Sovet ittifoqini natsionalizmni qo'llaganlikda ayblab yozgan bo'lsalar, konservatorlar matbuotida esa aksincha davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabat, o'zaro tolerantlik va Sovet-Amerika munosabatlarining kelajakda do'stona davom etishi bayon etilgan¹¹⁴.

Rus muallifi sanalgan N.P.Kalmikov o'zining “Россия и США в XX веке” maqolasida asosan rus tarixchisi V.L.Malikov qalamiga mansub bo'lgan “Россия и США в XX веке: очерке истории межгосударственных отношений и дипломатии в социокультурном контексте” nomli kitobidan foydalangan holda Ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet-Amerika munosabatlari ham qisman to'xtalib o'tgan. Muallif ta'kidlashicha, kitobning Sovet-Amerika munosabatlariga bag'ishlangan qismida munosabatlarning ijtimoiy-psixologik holatlari to'liq va yaqqol ochib berilgan¹¹⁵.

Sovet-Amerika munosabatlarida 60-yillarga kelganda ma'lum ma'noda yaqinlashuv jarayoni ro'y berdi. Bu jarayon Venada 1961-yilning 3-4 iyun kunlari N.S.Xrushyov va J.Kennedi o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashuv bilan bog'liq hisoblanadi. Bu uchrashuv natijasida hech qanday shartnoma yoki bitim

¹¹² Бонцевич Н.Н. Американские СМИ о Советской России в 1947 году // Известия Саратовского университета. 2011. том 11. Серия История. Международные отношения. выпуск 2. часть 2. с.88.

¹¹³ Бонцевич Н.Н. О'sha joyda. с.88.

¹¹⁴ Бонцевич Н.Н. О'sha joyda. с.89.

¹¹⁵ Н.П.Калмыков. Россия и США в XX веке. // Новая и новейшая история. 2011, №3. с.127-128.

imzolanmagan bo'lsada, bu uchrashuv Sovet-Amerika munosabatlarining keyingi rivojiga muhim turtki bo'ldi. Bu uchrashuv va uning munosabatlardagi o'rniga V.S.Xristoforov o'zining “Н.С.Хрущёв и Дж. Кеннеди: Подготовка и проведение встречи в Вене в 1961 году. По документам Российских Архивов” maqolasida to'xtalib o'tgan. Bu jarayonda muallif Rossiya Arxivi materiallaridan foydalangan.

Maqolada KPSS MK birinchi kotibi va SSSR Ministrlar kengashi raisi N.S.Xrushyovning 1950-yillarda g'arb davlatlari yetakchilari bilan yaxshi aloqalarni yo'lga qo'yganligi ta'kidlangan. Xususan, Fransiya, AQSh, Buyuk Britaniya bilan olib borgan aloqalari aytib o'tilgan¹¹⁶. Muallif keltirishicha 1960-yilda dunyoning 4 ta buyuk davlatlari: AQSh, SSSR, Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida Berlin muammosi yuzasidan Parijda uchrashuv belgilangan¹¹⁷... Ammo Sovet ittifoqi hududidagi Sverdlovskda AQSh harbiy samolyotining urib tushirilishi va undan razvedkaga oid ma'lumotlarning topilishi, N.S.Xrushyov tomonidan bu uchrashuvni rad etilishiga olib keladi¹¹⁸. Shuningdek, muallif o'z fikrlarini davom ettiradi: 1960-yilning oxiriga kelganda Sovet-Amerika munosabatlari berk yo'lga kirib qoldi...Negaki, navbatdagi prezident saylovi arafasi bo'lib, ko'p narsa saylov natijalariga bog'liq edi¹¹⁹. Saylov natijalari chiqqandan so'ng Sovet ittifoqi oldida yana bir savol turardi: AQSh Berlin muammosini hal qilishda Sovet ittifoqi bilan kelisha oladimi?. Saylangan AQSh prezidenti bu muammoni oson hal etdi. AQSh va Sovet-ittifoqi o'rtasida madaniy aloqalar davon etishini ma'lum qildi¹²⁰, - deb yozadi muallif. Muallifning quyidagi fikrlari ham o'rinlidir: “AQSh va Sovet ittifoqi raketa texnikasini takomillashtirishni ko'plab salbiy oqibatlar va omadsizliklar ro'y

¹¹⁶ В.С.Христофоров. Н.С.Хрущёв и Дж. Кеннеди: Подготовка и проведение встречи в Вене в 1961 году. По документам Российских Архивов. // Новая и новейшая история. 2011, №3. с.15.

¹¹⁷ В.С.Христофоров. О'sha joyda. с.18.

¹¹⁸ В.С.Христофоров. О'sha joyda.с.19.

¹¹⁹ В.С.Христофоров. О'sha joyda.с.24.

¹²⁰ В.С.Христофоров. О'sha joyda.с.24.

bersada davom ettirdi¹²¹... Ammo 1961-yilga kelib SSSR va AQSh davlat rahbarlari hamda jamoatchiligi tomonidan qurollanish xavfining anglab yetilishi, dunyoning ikki buyuk davlatlari rahbarlarini shaxsan uchrashuviga va ikki xil ijtimoiy-siyosiy tuzumning yaqinlashuviga olib keldi¹²². Buning samarasi o'laroq Venada bo'lib o'tgan sammit haqida ham o'z fikrlarini bildirgan. Yuqorida aytganimizdek, bu uchrashuvda hech bir hujjat imzolanmagan. Ammo muallifning quyidagi fikrlarini e'tibordan qochirmaslik lozim: "Bu uchrashuvda ikki davlat rahbarlari bir-birlarini anglab yetdilar, Kennedi ko'rdiki, Xrushyov aqilli va sog'lom fikrli hamkor"¹²³.

Sovet-Amerika munosabatlaridagi eng iliqlashgan davr XX asrning 70-80 yillari hisoblanib, bu davr tarixiy adabiyotlarda "detant" deb nomlanadi. Bu davr munosabatlar tarixida eng muhim davr hisoblanadi. Shu boisdan ham "detant" davri har doim Rossiya tarixchilari diqqat e'tiborida bo'lib kelgan. Bu holatni XXI asr rus davriy matbuot materiallarida ham kuzatish mumkin. Bu mavzu yuzasidan o'sha davrda chop etilgan maqolalar singari hozirgi kunda ham davriy matbuotda turli maqolalar chop etib kelinmoqda. Agar o'sha davrda matbuotda chop etilgan maqolalarda asosan o'sha davrda ochiq bayon etilgan materiallardan foydalangan bo'lsalar, Sovet ittifoqi tarqab ketgandan so'ng esa tarixchi olimlar o'z maqolalarida arxiv materiallaridan foydalanib, munosabatlar tarixiga oid bo'lgan holatlarni va ularni tarixini yoritib berishga harakat qilganlar. Bu borada ayniqsa XXI asrda yangicha qarash orqali bayon etilgan rus tarixchilarining maqolalari ajralib turadi.

AQSh davlat kotibi Genri Kissinjer XX asrning ikkinchi yarmida diplomatiya tarixida muhim rol o'ynagan, 1970-yillarda Sovet-Amerika munosabatlari shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Siyosiy iliqlashuv siyosati

¹²¹ В.С.Христофоров. Н.С.Хрущёв и Дж. Кеннеди: Подготовка и проведение встречи в Вене в 1961 году. По документам Российских Архивов. // Новая и новейшая история. 2011, №3. с.27.

¹²² В.С.Христофоров. О'sha joyda.с.28.

¹²³ В.С.Христофоров. О'sha joyda.с.33.

asoschilarida biri bo'lib qoldi. 1970 – yillarda Sovet – Amerika munosabatlarining yo'lga qo'yilishida muhim rol o'ynadi¹²⁴.

Rossiya muallifi sanalgan S.V.Xomutinkin o'zining “Генри Киссинджер и Советско-Американские отношения в 1970-е гг.” maqolasida AQSh davlat kotibi Genri Kissinjer XX asrning ikkinchi yarmida diplomatiya tarixida muhim rol o'ynagani, 1970-yillarda Sovet-Amerika munosabatlari shakllanishiga katta hissa qo'shganligini AQSh va boshqa G'arb davlatlari mualliflarining unga bergan bahosi hamda o'zining qarashlari bilan ochib bergan. Muallif fikricha Kissinjerning AQSh tashqi siyosati va xalqaro aloqalari bo'yicha o'z tinchlik va do'stlik nazariyasi bo'lib, uning asosida Sovet ittifoqi bilan munosabatlarda “katta iliqlik” davrini boshlab bergan¹²⁵. “Kissinjer, –deb yozadi muallif -1960-yillarning oxirida xalqaro tizimni beshta alohida kuchlar markaziga- AQSh, Sovet ittifoqi, Yevropa ittifoqi, Xitoy xalq respublikasi va Yaponiyaga-bo'ladi”¹²⁶. Kissinjer faoliyati ayni manashu dunyoda qarama qarshi kuchlarga bo'linib ketgan tomonlarni o'zaro do'stlik asosida birlashtirishga qaratiladi va u bu sohada bir qancha yutuqlarga erishadi. Shuningdek muallif «iliqlik» atamasi va uning kelib chiqishiga to'xtalgan. Uning keltirishicha “yumshash” atamasidan AQSh prezidenti R. Nikson ilk bor 1970-yil BMT Bosh Assambleyasining yig'ilishida foydalangan. Shuningdek prezident o'z nutqida “kuch siyosati” haqida ham to'xtalgan. Nutqda AQSh eski kuch siyosatidan voz kechib, har bir mamlakatga kelishuvlarda erkin ishtirok etishiga yordam berishi haqida aytib o'tgan¹²⁷. Shu o'rinda muallifning Kissinjerga bergan bahosi ham ajralib turadi. Genri Kissinjer 1970-yillardagi Sovet-Amerika munosabatlarida muhim rol o'ynadi...bu yillar davomida u ko'plab siyosiy muammolarni hal etdi, AQSh va Sovet ittifoqi o'rtasidagi munosabatlarning asosiy tartiblarini (presidentlarini) o'rnatib berdi, bu

¹²⁴ Umarov S. Henry Kissinger and Soveit – American relations in 1970th. // Молодой учёный. 2012. № 7. с.200.

¹²⁵ Хомутикин С.В. Генри Киссинджер и Советско-Американские отношения в 1970-е гг. // Россия и Америка в XXI веке. 2007. № 1. Электронные научные журнал. <http://www.rusus.ru>.

¹²⁶Хомутикин С.В. О'sha joyda. <http://www.rusus.ru>.

¹²⁷ Хомутикин С.В. О'sha joyda. <http://www.rusus.ru>.

orqali 1980-yillarning oxirida sovuq urushning tugashida muhim rol o'ynadi¹²⁸. Bu o'rinda muallif munosabatlarni yoritishga real qarab, o'tgan asrning 70-80 yillarida rus mualliflarining qarashlaridan keskin farq qiluvchi ushbu ma'lumotlarni keltiradi. Sovet davri tarixchilari munosabatlar yomonlashuvida asosan AQSh tomonini ko'rsatib o'tgan bo'lsalar, ulardan o'zgacha tarzda, aksincha AQSh munosabatlar yaxshilanishining asosiy tashabbuskori ekanligini ko'rsatib beradi¹²⁹.

A.G.Dulyan o'zining “Советско-Американские отношения в годы разрядки, 1969-1972.Рассекреченные архивные материалы” maqolasida 2007-yilda Rossiya va AQSh diplomatik aloqalariga 200 yil to'lishi munosabati bilan chop etilgan ikki kitobdan iborat, 1969-1976 yillar Sovet-Amerika munosabatlariga bag'ishlangan kitobda berilgan maxfiy arxiv ma'lumotlari asosida munosabatlarni ochib bergan. Muallif keltirishicha mazkur to'plamni tuzishda Rossiya va Amerikaning bir qancha arxivlaridagi ko'plab yangi materiallar jalb etilgan. Rossiyaning tashqi siyosat arxivi va Prezident arxivi, AQShning esa Milliy arxivining Markaziy Davlat fondi, Milliy Xavfsizlik kengashi arxivi, Kongress kutubxonasi, shuningdek, Milliy arxivning R.Nikson fondi materiallaridan foydalanilgan. To'plamda hammasi bo'lib 380 ta hujjat kiritilgan bo'lib, uning 198 tasi Rossiyaga, 182 tasi AQShga tegishlidir¹³⁰. Muallif ushbu to'plam haqida quyidagicha yozadi: “Hujjatli to'plam bizning mamlakat va AQSh o'rtasidagi munosabatlarda kalit davr hisoblangan va iliqlik davri boshlangan 1969-1972-yillarni qamrab oladi”¹³¹. Muallif munosabatlar iliqlashuvini quyidagicha beradi: “Mantiqiy tomondan iliqlashuv Raketaga qarshi kelishuv (PRO) imzolangan davrdan o'rnatilgan. Keyinchalik strategik

¹²⁸ Хомутикин С.В. Генри Киссинджер и Советско-Американские отношения в 1970-е гг. // Россия и Америка в XXI веке. 2007. № 1. Электронные научные журнал. <http://www.rusus.ru>.

¹²⁹ Умаров.С. Россия муаллифлари томонидан XX асрнинг 70 – 80 йиллари Совет – Америка муносабатлари баъзи бир долзарб муаммоларининг ёритилиши (XXI аср даврий матбуоти асосида) // СамДУ магистрантларининг 2011 йилги илмий тадқиқот ишлари якунлари бўйича XII ва талабаларнинг LXX илмий анжуманлари материаллари. Самарқанд 2012. 207 бет.

¹³⁰ А.Г.Дульян. Советско-Американские отношения. Годы разрядки, 1969-1972. // Новая и новейшая история. 2008, №2. с.83.

¹³¹ А.Г.Дульян. О'sha joyda. с.83.

qurollarni chelash to'g'risidagi – OSV-1 va OSV-2 shartnomalari bilan mustahkamlandi”¹³². Bu davrda Sovet-Amerika munosabatlarida Dobrinin va Kessinjer muhim ro'l o'ynagan. Xususan G.Kissinjerning faoliyatiga to'xtalib, uning faoliyatida Sovet-Amerika munosabatlari bu davrda ikki bosqichga bo'linganligi ta'kidlangan. Birinchi bosqich bu 1969-1970 yillar- “sinov” davri, bu davrda OSV-1 va PRO shartnomalari tuzilgan, Berlin muammosini hal etgan. Ikkinchi bosqich-1971-1972 yillar-iliqlik davrining boshlanishi¹³³. Shuningdek, maqolada bu to'plamda nafaqat ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar balki, hududiy muammolarga bag'ishlangan hujjatlar ham qamrab olgan. Muallif o'z maqolasida munosabatlarni ochib berishda kitob materiallarini umumiy holda qarab, baho berib o'tgan.

Rus tarixchilaridan biri V.V.Sokolov o'zining “Американский миллионер А.Хаммер сторонник разрядки и мира между СССР и США. По материалам Архива Президента РФ” maqolasida munosabatlar yaxshilanishida nafaqat davlat rahbarlari balki, AQSh tadbirkorlarining ham hissasi borligini millioner A.Xammer misolida ko'rsatib beradi. A.Xammer 1972-yilda Brejnevga maktub yo'llab aloqalarni yo'lga qo'yishni so'ragan¹³⁴. Shuningdek A.Xammerning 1973-yil 9-mayda qilgan nutqi ham e'tiborga olingan. Muallif keltirishicha A.Xammer bu nutqida u birinchi navbatda kapitalist bo'lib, shu boisdan ham u uchun eng muhimi kapital ekanligini aytgan. Shuningdek 1973-yil 14-iyulda A.Xammer Rossiyaga kelgani va shu kuni Brejnev bilan uchrashib, o'zaro savdo masalasida gaplashgani, buni asosida Sovet-Amerika savdo munosabatlari yo'lga qo'yilishiga turtki bo'lganligini ta'kidlagan¹³⁵.

¹³² А.Г.Дульян. Советско-Американские отношения. Годы разрядки, 1969-1972. // Новая и новейшая история. 2008, №2 с.85.

¹³³ А.Г.Дульян. О'sha joyda. с.85.

¹³⁴ В.В.Соколов. Американский миллионер А.Хаммер сторонник разрядки и мира между СССР и США. По материалам Архива Президента РФ. // Новая и новейшая история. 2009. № 1. с.168.

¹³⁵ В.В.Соколов. О'sha joyda. с.178.

Sovet – Amerika munosabatlarida XX asrning 70 – 80 yillarida o'zaro yaqinlashuv, iliqlashuv davri ro'y berdi. Mamlakatlar o'zaro qurollanishni cheklash xususida kelishuvlarni amalga oshira boshladilar. Sovet-Amerika munosabatlaridagi eng iliqlashgan davr yuzaga kelib, bu davr tarixiy adabiyotlarda “detant” deb nomlanadi. Bu davr munosabatlar tarixida eng muhim davr hisoblanadi. Har ikkala davlat vakillari bu davrda uchrashib dunyoda qurollanishni cheklash va uni qisqartirish masalalari yuzasidan muzokaralar olib borganlar. Bu uchrashuvlar natijasida ma'lum natijalarga erishilgan. Ammo shunday bo'lsada AQSh tomoni o'zining qurollanish dasturlarini davom ettirib, yangilarini maydonga olib chiqdi.

AQSh hukumati XX asrning 80 – yillarida samoni militarizatsiyalash rejasini ilgari surib, “Yulduzlar jangi” dasturini e'lon qildi. Unga ko'ra samoda yangi yadro qurollari yaratilishi belgilab qo'yilgan edi. Agar bu amalga oshsa, yadro urushi xavfi kuchayar edi.

Amerika o'z qurollarini Shimoliy Atlantika Bloki (NATO , tarkibiga 16 davlat kirgan) orqali Yevropada mohirona joylashtirdi. NATO o'z faoliyatini AQSh buyruqlari asosida amalga oshirardi. Shu boisdan ham NATO 70 –yillar oxirida 80 – yillarga mo'ljallangan qurollanish rejasini qabul qildi. Unda Yevropadagi barcha harbiy qurollarni yangilash va ko'paytirish nazarda tutilgan. NATO Amerika yadro raketasi “Peshing - 2” nomli 572 ta o'rta olislikka uchuvchi yadro raketasini g'arbiy Yevropa mamlakatlarida joylashtirdi. Bu bevosita Sovet ittifoqi va Sotsialistik davlatlarga qaratilgan edi.

XX asrning 80 – yillarida AQShning harbiy xizmatida 6,5 mln.dan ziyod kishi band edi. AQShning harbiy harajatlari oshib borishi mamlakat ichkarisida bir qancha muammolarni keltirib chiqardi. Ishsizlik natijasida ming – minglab ishchilar ko'chaga uloqtirildi. 1982 – yilning oxirida AQShda 12 mln.dan ziyod kishi (AQShning ishchi qatlamining 10%i) ishsiz edi. 1986 – yilga kelib 8 mln. 500 ming aholi ishsiz bo'lib qoladi.

Shuningdek qurollanish poygasi ijtimoiy ajratmalarning qisqarishiga, buning natijasida aholining qashshoqlashuviga olib keldi. Mualliflarning keltirgan raqamlariga qaraydigan bo'lsak, 1982 – yilning oxiriga kelib aholi turmush darajasi pasayib, aholining 15 % i (34,4 mln kishi) qashshoqlashadi. Bu ko'rsatgich 1985 – yilga kelib 35 mln. kishini tashkil yetgan.

Harbiy harajatlarni moliyalashtirish soliqlar yig'ish, ijtimoiy dasturlar – ishsizlarga yordam berish, ko'p bolali oilalarga yordam, sog'liqni saqlash va ta'lim harajatlarini qisqartirish natijasida amalga oshirilardi. “AQSh iqtisodchilarining bergan ma'lumotlariga ko'ra 1950 - yilda har bir ishchi o'z ish kunidan 2 soatini soliqqa o'tkazgan bo'lsalar, bu ko'rsatgich 80 – yillarda 4 soatga yetgan”¹³⁶.

Umuman AQSh hukumatining militaristik olib borgan siyosati natijasida qurollanishga mamlakat byujetidan milliardlab dollar sarf etildi. Barcha mablag'ning harbiy sohaga tashlanishi esa o'z navbatida ijtimoiy – iqtisodiy sohadagi muammolarni keltirib chiqargan edi.

¹³⁶ Иванян Э.А. История США . Москва 2004. ст.526.

2.3. Yalta – Postdam tartibotining barbod bo'lishi davrida (1986 – 1991 y.y.)

Sovet – Amerika munosabatlarining o'rganilish darajasi.

Sovet – Amerika munosabatlarida XX asrning 80 – yillari ikkinchi yarmida yaqinlashuv jarayoni kuchaydi. Bunga AQSh davlat rahbarligiga saylangan R.Reyganning Sovet davlati bilan yaxshi iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishga harakat qilganligi sabab bo'ldi. Shuningdek Sovet davlati tepasiga kelgan M.Gorbachyov ham mamlakatda “qayta qurish” siyosatini boshlagan bo'lib, mamlakatni iqtisodini qayta yo'lga qo'yish boshlangan yedi. Shu boisdan ham Sovet davlati bu kelishuvlardan manfaatdor yedi.

Sovet ittifoqi va AQSh o'rtasidagi munosabatlarning XX asr 80-yillari o'rtasida yaxshi yo'lga qo'yilishida har ikki tarafning o'rni bo'ldi. 1985-yil 11-martda KPSS rahbarligiga M.S.Gorbachyov saylanadi. U mamlakatda “qayta qurish”siyosatini olib borib, mamlakatni harbiy harajatlardan cheklashga harakat qildi. Shu boisdan u Sovet-Amerika munosabatlarida yangi davrni ochib beradi. Ikkala davlat o'rtasida qurollar ustidan nazorat masalasi yana o'rtaga chiqarildi. Shuningdek bu davrga kelib AQSh prezidenti R.Reygan ham munosabatlarni yaxshilash uchun harakat qilar edi. Bunga Karib inqirozi, Vyetnam urushi, qurollanish poygasi, harbiy harajatlarning o'sib borishi sabab bo'ldi. Oqibatda Reygan tomonidan Sovet ittifoqiga bir necha bor kelishuvlar yuzasidan notalar yuborilib, ular munosabatlar rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Ikkala davlat o'rtasida XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmida 3 ta xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan shartnoma : Jeneva, Reykyavik va Vashington shartnomalari imzolandi.

Bu esa AQSh uchun ham, Sovet ittifoqi uchun ham foydali edi. Sovet davlatining parchalanish jarayonini rus tarixchilari samarali o'rganib chiqqanlar. Ular o'z asar va maqolalarida parchalanib ketish sabablarini turlicha ko'rsatib bergan.

Sovet – Amerika munosabatlari XX asrning 90 – yillari boshida ham o'ziga hos iliq tarzda kechdi. Ushbu davrda bo'lgan davlatlarning munosabatlari rus mualliflaridan V.K.Volkovning ““Новой мировой порядок” и Балканский

кризис 90 – х годов”, М.М.Narinskiyning “Советское руководство и кризис в Персидском заливе (1990 – 1991 годы). Новые материалы” va R.V.Dolgilevichning “Вопрос о статусе Берлина. 1944 – 1990 годы” kabi maqolalarida ochib berilgan.

Sovet – Amerika munosabatlarida 1980 – yillarning ikkinchi yarmida ro’y bergan yaqinlashuv natijasida Yalta – Postdam tartiboti bekor bo’ldi. Endilikda har ikki davlat munosabatlarni yaxshi yo’lga qo’yidilar. Ammo shunday bo’lsada Sovet davlati 1991 – yilda parchalanib ketdi.

Rossiya muallifi hisoblangan V.K.Volkov o’zining ““Новой мировой порядок” и Балканский кризис 90 – х годов” maqolasida keyingi to’rt yuz yil davomida xalqaro munosabatlar tarixida beshta tartibot o’zgarganligini ta’kidlagan¹³⁷. Ulardan biri Yalta – Postdam tartiboti hisoblanadi. Muallif maqolaning “Xalqaro munosabatlarda Yalta – Postdam tartibotining parchalanishi” qismida Yalta – Postdam tartibotining bekor bo’lishiga ko’maklashgan omillarni yoritib bergan.

Muallif Yalta – Postdam tartiboti haqida quyidagicha yozadi: “Bu tartibot qirq yildan ziyod hukm surdi va barcha xalqlar hayotida muhim rol o’ynadi”¹³⁸. Shuningdek muallif 1989 – 1991 – yillarda bu tartibot barbod bo’lgandan so’ng dunyoda “yangi tinchlik tartiboti” yuzaga kelganligini, dunyo va Yevropada bugungi kungacha beshta bu kabi tartibotlar o’rnatilganligiga to’xtalgan¹³⁹. Muallif bu tartibodning barbod bo’lishini Sovet davlatining ichki hayotida ro’y bergan turli milliy nizolar bilan bog’laydi. Shu boisdan ham Sovet davlatining yangi rahbari M.S.Gorbachyov “sovuq urush”dan chiqish va yadro qurolida qisqarish qilishni boshlagan. Muallif ushbu omillar sababli M.S.Gorbachyov “yangi qarashlar” va “umumyevropa uyi” konsepsiyalari bilan chiqqanligini

¹³⁷ В.К. Волков. “Новой мировой порядок” и Балканский кризис 90 – х годов. // Новая и новейшая история. 2002. № 2. ст.11.

¹³⁸ В.К. Волков. О’sha joyda. ст. 12.

¹³⁹ В.К. Волков. О’sha joyda. ст. 12.

keltirgan¹⁴⁰. Shu bilan birga muallif Sovet davlati tomonidan GDR, Polsha, Chexoslovakiya va Vengriya davlatlaridan o'z qo'shinlarini olib chiqib ketish qaroriga 1987 – yilda kelganligini ta'kidlagan¹⁴¹.

Sovet davlati va Varshava kelishuvi ittifoqi dunyo siyosiy maydoniga “yangi tinchlik tartiblarini” targ'ib qila boshladi. Sovet davlati “sovuq urush”ni yo'q qilishga urindi. Buni esa NATO va AQSh o'zini g'alabasi sifatida baholadi. Yaqin Sharqda 1990 – 1991 – yillarda Iroq Quvaytga harbiy hujum uyushtirdi. Ushbu nuqtada « yangi tinchlik tartibi » bilan ish boshlagan Sovet davlati AQSh va BMTning qarashlariga qarshi bo'lgan fikrni bildirdi. Muallif bu hususida ham to'xtalib o'tgan. Muallif keltirishicha Sovet davlati Iroqqa qarshi harbiy kuchdan foydalanishga qarshi chiqdi¹⁴².

V.K.Volkovning fikrlari keng ko'lamda M.M.Narinskiyning “Советское руководство и кризис в Персидском заливе (1990 – 1991 годы). Новые материалы” maqolasida yoritib berilgan. Yaqin Sharqda Iroq Quvaytni egallab olgandan so'ng BMT 660 – rezolyutsiyasini bajarmadi. BMTning 661 – rezolyutsiyasi – Iroqqa iqtisodiy qamal ham samara bermadi. Bu vaziyatda AQShda Iroqqa qarshi harbiy kuch ishlatish lozim degan qarashlar shakllandi.

AQSh va Sovet davlati rahbarlarining yuzma – yuz uchrashuviga 1990 – yil avgustda AQSh prezidenti J.Bush taklif kiritdi. Muallif keltirishicha ushbu taklifda Yevropa davlatlarining birining poytaxtida uchrashuv bo'lishi va unda ikki buyuk davlat rahbarlarining bir – birlarini tushunib olishi lozim edi¹⁴³. Sababi Iroqqa nisbatan harbiy rezolyutsiyaga Sovet davlati qarshi chiqmoqda edi. AQSh va Sovet davlati prezidentlarining uchrashuvlari 1990 – yil 9 –

¹⁴⁰ В.К. Волков. “Новой мировой порядок” и Балканский кризис 90 – х годов // Новая и новейшая история. 2002. № 2. ст.15.

¹⁴¹ В.К. Волков. О'sha joyda. ст. 16.

¹⁴² В.К. Волков. О'sha joyda. ст. 19.

¹⁴³ М.М.Наринский. Советское руководство и кризис в Персидском заливе (1990 – 1991 годы). Новые материалы // Новая и новейшая история. 2007. № 3. ст.81.

sentabrda Xelsinkida bo'lishi belgilandi¹⁴⁴. Muallif ushbu uchrashuvda ko'rilgan Ko'rfaz masalasiga ham to'xtalgan. Muallif keltirishicha M.S.Gorbachyov Iroqqa qarshi harbiy kuch qo'llashga BMT xavfsizlik kengashi doimiy a'zosi Xitoy yordamida qarshilik ko'rsatgan. Bunga sabab qilib, harbiy kuch ishlatish ko'plab odamlarning qurbon bo'lishi, og'ir iqtisodiy ahvolga olib kelishini ma'lum qilgan¹⁴⁵. M.S.Gorbachyov uchrashuvda « Iroqqa qarshi harbiy kuch ishlatish Saudiya Arabistoni va Iordaniyani mag'lub bo'lishdan asrar, ammo bu davlatlar yoki Iroqning o'zi yangi kuchlar to'playdi va bu yangi urushni keltirib chiqaradi »¹⁴⁶ deb ta'kidlab o'tadi.

Sovet davlati Iroq masalasini tinch yo'l bilan hal qilishda prezident M.S.Gorbachyovning o'zi faol harakat qildi. Bu hususida muallif quyidagicha beradi. U 1991 – yil 18 – fevralda Iroq tashqi ishlar vaziri Toriq Aziz bilan Kremlda uchrashdi. Aziz bilan suhbatda Gorbachyov quyidagi rejasini ma'lum qildi: «Iroq Quvaytdan qo'shinini olib chiqib ketishga tayyor ekanligini ma'lum qilishi, qo'shin harbiy harakatlar tugagan kunning ertasidan olib chiqilishini, Havfsizlik kengashi Quvaytdan chiqib ketayotgan qo'shinni havfsizligini ta'minlashini »¹⁴⁷. Keyingi bir necha uchrashuvlar natijasida Iroq 1991 – yil 27 – fevralda BMT havfsizlik kengashining barcha rezolyutsiyalarini qabul qilishini ma'lum qildi¹⁴⁸.

Shunday qilib Yaqin Sharqdagi Ko'rfaz inqirozi Gorbachyovning say harakatlari bilan AQSh bilan hamkorlik va do'stlikni saqlab qolgan holda tinch yo'l bilan yakunlandi. Bu esa « sovuq urush »ni tugatdi, xalqaro munosabatlarda « yangi siyosiy qarashlar »ning ustunligini ko'rsatdi.

Bu davrda Sovet – Amerika munosabatlarida Berlin masalasida ham iliqlik, hamfikrlilik yuzaga keldi. Bu hususida P.В.Долгилевичнинг “Вопрос о

¹⁴⁴ М.М.Наринский. Советское руководство и кризис в Персидском заливе (1990 – 1991 годы). Новые материалы. // Новая и новейшая история. 2007. № 3. ст.81.

¹⁴⁵ М.М.Наринский. О'sha joyda. ст.82.

¹⁴⁶ М.М.Наринский. О'sha joyda. ст.82.

¹⁴⁷ М.М.Наринский. О'sha joyda. ст.82

¹⁴⁸ М.М.Наринский. О'sha joyda. ст.97.

статусе Берлина. 1944 – 1990 годы” maqolasining oxirgi qismida ma’lumotlar berilgan. Muallif keltirishicha Berlin devori 1989 – yil qulagandan so’ng, bu masalani hal qilishdagi muhim hal qiluvchi bosqich 1990 – yil 12 – sentabrda Moskvada “2+4” ko’rinishida GFR, GDR, AQSh, Angliya, Fransiya va SSSR o’rtasidagi uchrashuv bo’ldi¹⁴⁹. Berlin muammosini tugatilishini muallif quyidagicha beradi: “1990 – yil 1 – oktabrda oltita davlat tashqi ishlar vazirlari, “2+4” guruhi davlatlari vazirlari protokol imzoladi. Berlinning mavqeyi masalasi tugadi”¹⁵⁰.

Yalta – Postdam tartiboti barbod bo’lib, mamlakatlar orasida yangi qarashlar asosida munosabatlar yo’lga qo’yildi. Bunda bir – biriga ishonch, o’zaro hamkorlik, do’stlik asosida munosabatlar amalga oshirildi. Bu esa dunyodagi bir necha muammo va siyosiy inqirozlarni dunyoning ikki buyuk davlati tomonidan o’zaro kelishib, hamkorlikda hal etilishiga olib keldi.

¹⁴⁹ Р.В.Долгилевич. Вопрос о статусе Берлина. 1944 – 1990 годы. // Новая и новейшая история. 2011. № 3. ст.52.

¹⁵⁰ Р.В.Долгилевич. О’sha joyda. ст.52.

Xulosa

Ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet –Amerika munosabatlari xalqaro munosabatlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Turli bosqichlarda turlicha kechgan Sovet – Amerika munosabatlari duyoning qay bir nuqtasida bo'lmasin bir biri bilan tuqnash keldi. Shu boisdan ham bu ikki davlatlar o'rtasidagi munosabatlar xalqaro munosabatlarni boshqarib turdi. Bu o'z navbatida munosabatlarni o'rganishga bo'lgan intilishga olib keldi. Sho'rolar davri va Rossiya mualliflari munosabatlarni o'rganishib, bir qancha maqolalar chop qilishgan.

Sho'rolar davrida munosabatlar davriy matbuot sahifalarida mualliflar tomonidan samarali yoritilgan. Bu jarayonda mualliflar asosan kommunizm g'oyalariga tayangan va Sovet ittifoqi rahbariyatining qarashlari asnosida munosabatlarni yoritib bergan. Ammo shunday bo'lsada bu maqolalar bugungi kunda Sovet – Amerika munosabatlarini o'rganishda ma'lum ma'noda ko'mak beradi. Sovet davri mualliflari nafaqat sotsializm g'oyalari bilan cheklanib qolmaganlar, ular Sovet –Amerika munosabatlarida inqiroziy va salbiy holatlar ro'y berishida asosiy aybdor davlat sifatida Amerika Qo'shma Shtatlarini ko'rsatishgan. Maqolalarning bu kabi yozilishiga sabab, ko'pchilik maqolalar Sovet ittifoqi rahbariyati tomonidan buyurtma asosida yozilardi. Bunda esa asosan Sovet davlatining manfaatlari ustunligi ta'minlanib, uning qarashlari aks etardi. Ammo shunday bo'lsada ba'zi mualliflar ayrim o'rinlarda munosabatlarga obektiv baho berishga intilganlar. Xususan sho'ra muallifi G.M.Kornienko o'zining “Новое о Карибском кризисе” nomli maqolasida munosabatlar keskinlashuvida Amerika Qo'shma Shtatlarini aybdor deb bersada, ammo inqirozni boshlab bergan davlat sifatida Sovet ittifoqini tan olgan. Bu esa o'sha davrda Sovet davlati qarashlariga zid edi. Shu bilan birga Sovet mualliflari A.I.Grishenko va A.I.Stepanovichlar o'zlarining “Хелсинки: борьба за мир, безопасность и сотрудничество в Европе” nomli maqolasida ham AQSh davlat rahbari R.Reyganni 80 – yillardagi munosabatlar

iliqlashuvining asosiy tashabbuskori sifatida berganlar. U tomondan Sovet davlatiga o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishni so'rab notalar yuborilganligi e'tirof etilgan. Mualliflar bu o'rinda obyektiv baholashga harakat qilganlar. Shunday bo'lsada ko'plab maqolalarda yuqorida aytganimizdek, asosiy aydoriy davlat sifatida AQSh berilgan. Bu esa ochiqdan ochiq Amerika Qo'shma Shtatlarini dunyo siyosiy maydonida qoralash edi. Sovet davlatining bu kabi yo'l tutishiga dunyoda ketayotgan kurashlar majbur etgan. Sovet davlati "eng kuchli qurol" davriy matbuotdan bu kurashda foydalangan. Bir so'z bilan aytganda Sho'rolar davri davriy matbuoti materiallari bu Sovet davlati rahbariyati tomonidan olib borilgan sotsialistik siyosatning mevasi, uning qurboni bo'lgan desak hato qilmaymiz.

Sho'rolar davrida munosabatlar yoritilgani kabi Sovet davlati parchalanib ketganidan so'ng ham Sovet – Amerika munosabatlari davriy matbuot sahifalarida muntazam yoritilib kelinmoqda. Albatta Rossiya mualliflari o'zlarining maqolalarini arxiv materiallaridan, voqea guvohlarining esdaliklaridan hamda AQShda o'sha davrda chop etilgan turli davriy va ilmiy materiallardan foydalangan holda yoritib berganlar. Rossiya mualliflarining maqolalari sotsialistik g'oyalardan holi bo'lgan, munosabatlarga erkin va obyektiv qarash asosida baho berilgan holda maydonga kelgan. Mualliflar o'z maqolalarida Sovet davlati va Amerika Qo'shma Shtatlarining munosabatlarini haqqoniy yoritish orqali, asl tarixiy holatlarni ochib berishga intilgan.

Sho'rolar davri davriy materiallaridan Rossiya mualliflarining materiallari quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan: sho'rolar davri mualliflari o'z maqolalarini asosan sotsialistik va kommunistik g'oyalar asosida kapitalizmga qarshi kayfiyatda yaratgan bo'lsa, Rossiya mualliflari bu holatdan chekinib, demokratik tamoyillar asosida munosabatlarni yoritib bergan:

Ikkinchidan: sho'ro mualliflari o'z maqolalarini obyektiv baholagan holda emas, balki, rahbariyatning buyurtmasi asosida yozganlar. Bunda esa ko'plab obyektiv

voqeyliklar cheklab o'tilgan. Rossiya tarixchilari bo'lsa tarixiy jarayonlarni boricha obyektiv ochib berganlar;

Uchinchidan: sho'ro mualliflari o'sha davrda ochiq bayon etilgan materiallarga tayanib yozgan bo'lsalar, Rossiya mualliflari keng hajmli arxiv materiallariga murojat qilib, ular asosida munosabatlarni bayon etganlar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XX asrning ikki buyuk davlati – Sovet ittifoqi va AQSh o'rtasidagi munosabatlar sho'ro va Rossiya davriy matbuotida turli qarash va g'oyalar asosida yaratilgan. Bir so'z bilan aytgnda ikki davrda yaratilgan davriy matbuot materiallari bir biridan qarashlarning turliligi, fikrlar bayoni, manbaviy asoslari bilan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. **Арбатов А.Г.** Роль Пентагона в формировании внешней политики США послевоенного двадцатилетия. // Вопросы истории .1974.№2. ст. 98-112.
2. **Богданов Р.Г.** Рейкьявик: на путях нового политического мышления.// Вопросы истории.1987.№ 4 ст.14-25.
3. **Бонцевич Н.Н.** Американские СМИ о Советской России в 1947 году. // Известия Саратовского университета 2011., том 11., Серия История. Международные отношения., выпуск 2, часть 2., с.88-96.
4. **Волков В.К.** “Новой мировой порядок” и Балканский кризис 90 – х годов. // Новая и новейшая история. 2002., № 2., ст.11-34
5. **Воронцов Г.А.** Эволюция внешней политики США в условиях разрядки. // Вопросы истории.1976.№ 9 ст.48-65.
6. **Грищенко А.И., Степанов А.И.** Хельсинки: борьба за мир, безопасность и сотрудничество в Европе. // Вопросы истории.1985. №10. ст 4-13.
7. **Долгилевич Р.В.** Вопрос о статусе Берлина. 1944 – 1990 годы. // Новая и новейшая история. 2011., № 3., ст.52.
8. **Дульян А.Г.** Советско-Американские отношения. Годы разрядки, 1969-1972. // Новая и новейшая история. 2008, №2 с.82-89.
9. **Иванян Э.А.** История США . Москва 2004 ст.525.
10. **Игнатъев Л.Н.** Ядерное оружие и Американская внешняя политика. // Вопросы истории. 1971, №6, ст.88-99.
11. **Ильичев Л.Ф., Рахманинов Ю.Н.** СССР в борьбе за реализацию программы мира на 80-е годы. // Новая и новейшая история. 1982. №6. ст. 13-31.

- 12.**Калмыков Н.П.** Россия и США в XX веке. // Новая и новейшая история. 2011, № 3 с.122-130.
- 13.**Корниенко Г.М.** Новое о Карибском кризисе. // Новая и новейшая история. 1991. № 1.ст.77 - 92.
- 14.**Кочкин Н.В.** СССР, Англия. США и “турицкий кризис” 1945 – 1947 гг. // Новая и новейшая история. 2002, №3 с.58 - 77.
- 15.**Наринский М.М.** Советское руководство и кризис в Персидском заливе (1990 – 1991 годы). Новые материалы. // Новая и новейшая история. 2007., № 3., ст.81-102.
- 16.**Новоселова Н.Н.** СССР и США: два противоположных подхода к проблеме международной безопасности. // Новая и новейшая история.1981. №6. ст.3-21.
- 17.**Петровский В.Ф.** Борьба СССР за разрядку в 70-годи. // Новая и новейшая история. 1981, №1 ст.7-19.
- 18.**Пономарев Б.Н.** Борьба против милитаризма и гонки вооружений в современном мире. // Новая и новейшая история. 1987, №2, ст.5-27.
- 19.**Святов Г.И.** О политике США в области строительства вооруженных сил и ограничения вооружений. // Вопросы истории .1978. №2. ст. 84-99.
- 20.**Севостьянов И.** США в международных отношениях середины 70-х годов. // Вопросы истории. 1982. №5. ст. 75-97.
- 21.**Соколов В.В.** Американский миллионер А.Хаммер сторонник разрядки и мира между СССР и США. По материалам Архива Президента РФ. // Новая и новейшая история. 2009, №1 с.160-182.
- 22.**Тумковский Р.Г.** Советско-Американские переговоры об ограничении стратегических вооружений. // Вопросы истории.1979. №3. ст.73-103.

23. **Umarov S.** Henry Kissinger and Soviet – American relations in 1970th. // Молодой учёный., 2012., № 7., с.200-204.
24. **Умаров.С.** Россия муаллифлари томонидан XX асрнинг 70 – 80 йиллари Совет – Америка муносабатлари баъзи бир долзарб муаммоларининг ёритилиши (XXI аср даврий матбуоти асосида). // СамДУ магистрантларининг 2011 йилги илмий тадқиқот ишлари якунлари бўйича XII ва талабаларнинг LXX илмий анжуманлари материаллари. Самарқанд 2012., 207 – 209 бет.
25. **Хайцман В.М.** Крах атомной монополии США. // Новая и новейшая история. 1981. № 1.ст.18 - 35.
26. **Хомутилкин. С.В.** Генри Киссинджер и Советско-Американские отношения в 1970-е гг. // Россия и Америка в XXI веке.// Электронные научные журнал. 2007, № 1.
27. **Христофоров В.С.** Н.С.Хрущёв и Дж. Кеннеди: Подготовка и проведение встречи в Вене в 1961 году. По документам Российских Архивов. // Новая и новейшая история. 2011, № 3 с.15-34.

Qisqartmalar ro'yxati

1. **GFR** - Germaniya federativ respublikasi
2. **MBR**-mejkontinentalnyye ballisticheskiye rakety - qitalararo ballistik raketa
3. **MK KPSS** – Sovet sotsialistik kommunistik partiyasi markaziy kengashi.
4. **NATO** – Shimliy Atlantika harbiy bloki.
5. **OSV 1** - Ogranicheniye strategicheski voorujeniy-1 -
6. **OSV 2** - Ogranicheniye strategicheski voorujeniy-2
7. **PRO**- protivoraketnaya oborona -raketadan himoyalanish

ILOVALAR



Kennidi va Xrushyov uchrashuvi. 4 – iyun, 1961 – yil



Jimmi Karter va Leonid Ilich Brejnev OSV-2 kelishuvini imzolashmoqda. Vena, 18 iyun 1979 yil.

ВРЕМЕННОЕ СОГЛАШЕНИЕ
МЕЖДУ СОЮЗОМ СОВЕТСКИХ
СОЦИАЛИСТИЧЕСКИХ РЕСПУБЛИК И СОЕДИНЕННЫМИ ШТАТАМИ АМЕРИКИ
О НЕКОТОРЫХ МЕРАХ В ОБЛАСТИ ОГРАНИЧЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ
НАСТУПАТЕЛЬНЫХ ВООРУЖЕНИЙ
26 МАЯ 1972Г.

(Соглашение вступило в силу 3 октября 1972г.)

Союз Советских Социалистических Республик и Соединенные Штаты Америки, ниже именуемые сторонами,

будучи убежденными, что Договор об ограничении систем противоракетной обороны и настоящее Временное соглашение о некоторых мерах в области ограничения стратегических наступательных вооружений будут способствовать созданию более благоприятных условий для проведения активных переговоров об ограничении стратегических вооружений, а также содействовать смягчению международной напряженности и укреплению доверия между государствами,

учитывая взаимосвязь между стратегическими наступательными и оборонительными вооружениями,

принимая во внимание свои обязательства по статье VI Договора о нераспространении ядерного оружия,

согласились о нижеследующем:

Статья I

Стороны обязуются не начинать строительство дополнительных стационарных пусковых установок межконтинентальных баллистических ракет (МБР) наземного базирования с 1 июля 1972 г.

Статья II

Стороны обязуются не переоборудовать пусковые установки легких МБР наземного базирования, а также МБР наземного базирования старых типов, развернутых до 1964 г., в пусковые установки тяжелых МБР наземного базирования типов, развернутых после этого времени.

Статья III

Стороны обязуются ограничить пусковые установки баллистических ракет подводных лодок (БРПЛ) и современные подводные лодки с баллистическими ракетами числом находящихся в боевом составе и в стадии строительства на дату подписания настоящего Временного соглашения, также дополнительно построенными пусковыми установками и подводными лодками в определенном для сторон порядке в качестве замены равного числа пусковых установок МБР старых типов, развернутых до 1964 г., или пусковых установок старых подводных лодок.

Статья IV

С соблюдением положения настоящего Временного соглашения могут производиться модернизация и замена стратегических наступательных баллистических ракет и пусковых установок, на которые распространяется настоящее Временное соглашение.

Статья V

1. В целях обеспечения уверенности в соблюдении положений настоящего Временного соглашения каждая из сторон использует

имеющиеся в ее распоряжении национальные технические средства контроля таким образом, чтобы это соответствовало общепризнанным принципам международного права.

2. Каждая из сторон обязуется не чинить помех национальным техническим средствам контроля другой стороны, выполняющим свои функции в соответствии с пунктом 1 настоящей статьи.

3. Каждая из сторон обязуется не применять преднамеренные меры маскировки, затрудняющие осуществление контроля национальными техническими средствами за соблюдением положений настоящего Временного Соглашения. Это обязательство не требует внесения изменений в существующий порядок строительных, монтажных и ремонтных работ и работ по переоборудованию.

Статья VI

Для содействия осуществлению целей и положений настоящего Временного соглашения стороны будут использовать постоянную консультативную комиссию, создаваемую согласно статье XIII Договора об ограничении систем противоракетной обороны, в соответствии с положениями этой статьи.

Статья VII

Стороны обязуются продолжить активные переговоры об ограничении стратегических наступательных вооружений. Предусмотренные настоящим Временным соглашением обязательства не определяют объем или условия ограничений стратегических наступательных вооружений, которые могут быть выработаны в ходе последующих переговоров.

Статья VIII

1. Настоящее Временное соглашение вступает в силу по обмену письменными уведомлениями о его принятии каждой из сторон, причем такой обмен будет иметь место одновременно с обменом ратификационными грамотами Договора об ограничении систем противоракетной обороны.

2. Настоящее Временное соглашение будет оставаться в силе в течение пяти лет, если оно не будет заменено ранее этого срока соглашением о более полных мерах по ограничению стратегических наступательных вооружений. Стороны ставят себе задачей проведение активных последующих переговоров с целью заключения такого соглашения так скоро, как это возможно.

3. Каждая из сторон в порядке осуществления своего государственного суверенитета имеет право выйти из настоящего Временного соглашения, если она решит, что связанные с содержанием настоящего Временного соглашения исключительные обстоятельства поставили под угрозу ее высшие интересы. Она уведомляет другую сторону о принятом ею решении за 6 месяцев до выхода из настоящего Временного соглашения. В таком уведомлении должно содержаться заявление об исключительных обстоятельствах, которые уведомляющая сторона рассматривает как поставившие под угрозу ее высшие интересы.

Совершено 26 мая 1972 г. в городе Москве в двух экземплярах, каждый на русском и английском языках, причем оба текста имеют одинаковую силу.

За Союз Советских
Социалистических Республик
Л. Брежнев

За Соединенные Штаты
Америки
Ричард Никсон

Генеральный секретарь
ЦК КПСС

Президент Соединенных
Штатов Америки



1985 – yil noyabr. Jenevada sovet – amerika uchrashuvi.



**Oktyabr 1986 y.
M.S.Gorbachyov va R.Reyganning
Reykyavikdagi uchrashuvi**



8 dekabr 1987 y. Vashingtonda SSSR va AQSh o'rtasida o'rta va oliy masofaga uchuvchi raketalarni qisqartirish to'g'risidagi kelishuvi